

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA KAFEDRASI

« JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI
RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta`lim yo`nalishi

bitiruvchi 4-kurs talabasi Ch.Asrorova

ILMIY RAHBAR:

O.X.Quvondiqov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

_____sonli bayonnoma «__»_____2013 yil

Samarqand-2013

MUNDARIJA

Kirish.....

**I-BOB. JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI
RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.....**

1.1. Iqtisodiy geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari.....

1.2. Aholisi va mehnat resurslari.....

1.3. Transporti va tashqi aloqalari.....

**II-BOB. JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARI
VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....**

2.1. Tumanda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va uning rivojlanish xususiyatlari...

2.2. Yer fondi va undan foydalanish.....

2.3. Tuman qishloq xo‘jaligi tarmoqlari tarkibi.....

**III-BOB. JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI
RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI.....**

**3.1. Jomboy tumanida qishloq xo‘jaligi rivojlanishining muammolari va
istiqbollari.....**

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublika qishloq xo'jaligining istiqboli uchun va halq modiy farovonligini oshirish ko'p jihatdan uni rivojlantirishga bog'liq. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishdan maqsad yerni haqiqiy dehqon, tadbirkor va ishbilarmonlar qo'liga topshirish qishloqlarda mulkdorlar safini shakillantirishdan iboratdir. Ma'lumki aholi sonining oshib borishi bevosita iste'mol munosabatlariga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ladi. Bazar munosabatlari sharoitida aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash bozor talablari darajasida mahsulot yaratish, talab va taklifdan kelib chiqqan xolda yil davomida aholini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlash uchun hududlar tabiiy sharoiti va imkoniyatlarini ilmiy jixatdan o'rganish ahamiyatlidir.

Mavzuning maqsad va vazifasi. Malakaviy bitiruv ishining maqsadi rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda Jomboy tumanida qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda uning hududiy tashkil etilganlik darajasini iqtisodiy geografik nuqtai nazardan ilmiy yondashgan holda o'rganib chiqishdan iboratdir. Tuman iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi tarmoqlari, shu jumladan fermerchilikni o'zni, uni tashkil etish muammolari, kamchiliklari hamda yutuqlarini atroflicha o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi yil sayin rivojlanib, uning infrastrukturasini o'zgarib bormoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligi qadimiy tarmoqlardan biri bo'lib, uning tuprog'ida yetishtirilgan noz-ne'matlar, nafaqat respublikamizda balki, jahon bozorlarida ham o'z nufuziga egadir. Ushbu tarmoqni mintaqamiz hududlarida to'g'ri tashkil etish va rivojlantirish maqsadga muvoffiqdir.

Mamlakatimizning ko'pgina viloyatlarida bo'lgani kabi Jomboy tumanida ham qishloq xo'jalik tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, bugungi kunda ushbu

tarmoqni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ushbu maqsadga erishishda quydagi muhim vazifalarni hal etishni talab qiladi.

Jomboy tumanining iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslarini iqtisodiy geografik jihatdan baholash. Tuman joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari, uning Samarqand shahriga yaqinligi, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan avtomobil va temiryo'l yo'llari o'tgan joyda, qo'lay geografik no'qtada joylashganligi bilan belgilanishi. Tuman qishloq xo'jaligi rivojlanishiga tabiiy geografik omillardan iqlim, suv, tuproq va boshqalarning ta'siri, aholi va mehnat resurslarining qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi ta'siri, transport tarmoqlarining tumandagi ahamiyati, rivojlanish holati, uning tarmoqlardagi harakati shu bilan birga tashqi iqtisodiy aloqalariga e'tibor beriladi.

Ishning vazifasi. Tuman qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari va ularni xududlar va tarmoqlardagi holatini o'rganish va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib xulosalar berish, shu bilan birga dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining joylashuv holatlarini tadbiq qilish hamda qishloq ho'jalikda fermerchilik o'rni va ahamiyati, uni tashkil etishda mavjud ayrim muammo va kamchiliklarni atroflicha tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Ishda aholini qishloq xo'jalik mahsulotlariga shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, ya'ni yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlovchi korxonalarni tarmoqlar bo'yicha tashkil etish ularga moliyaviy-iqtisodiy jihatdan yordam ko'rsatish ichki is'temol bozorini sifatli raqobotbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotlar ishlab chiqarish va uni to'g'ri tashkil qilishdan iboratdir.

-Jomboy tumanida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti, resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan aholi va uning joylashuvi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rganish;

-Tumanda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlanishining asosiy xususiyatlarini tadqiq etish, bunda yer fondi, undan foydalanish darajasini, mavjud yer resurslarining bugungi ahvolini o‘rganish;

-Tumanda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlanish xususiyatlarini, xo‘jaliklar tizimida chuqurroq ilmiy jixatdan tadqiq etish va mahsulot yetishtirish xolatini o‘rganish;

-Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini tuman hududlaridagi holatini aniqlash, ishlab chiqarish hajmini va uning barcha xo‘jalik toyifalaridagi ahvolini iqtisodiy geografik jixatdan o‘rganish;

-Jomboy tumanida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari mavjudligini asoslash, mavjud ayrim muammolarini hal etishga doir taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Ishning so‘ngida o‘rganilgan mavzu yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish orqali ishning asosiy mazmuni va mohiyatini atroflicha bayon etgan holda ochib berishdan iborat. Ishda ilmiy adabiyotlar hamda tumanga oid statistik materiallarni tahlil qilish va o‘rganish belgilandi.

I BOB. JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

1.1. Iqtisodiy geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari

Jomboy tumani iqtisodiy geografik jihatdan qulay hududa Samarqand shahriga yaqin, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan avtomobil va temiryo‘l yo‘llari o‘tgan joyda, qo‘lay geografik no‘qtada joylashgandir. Tuman qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga tabiiy geografik omillardan iqlim, suv, tuproq va boshqalarning yetarli darajada ekanligi shu bilan birga aholi va mehnat resurslarining mavjudligi sabab qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlanishiga va sanoat tarmoqlarini kupayib borishiga xizmat qilmoqda. Jomboy tumani Samarqand viloyatining janubiy–sharqida Chuponota tepaligining orqa qismida joylashgan bo‘lib u 1936 yilda tashkil etilgan va Bulung‘ur tumani tarkibiga qo‘shilgan. 1970-yilning 8-dekabrga yana qayta tiklangan. Jomboy tumani shimoldan G‘allaorol, janub va janubiy g‘arbda Payariq va sharqdan Bulung‘ur tumanlari bilan chegaradosh. Qisman Oqdaryo va Tayloq tumanlari bilan ham tutashgan. Maydoni 559,6 km kv tashkil qiladi. Tumanda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan umumiy ekin maydoni 33,8 ming gektar bo‘lib, shundan 21,7 gektari sug‘oriladigan yerlardan iborat.

Tumanda qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan bo‘lib unda 8 ta qishloq fuqorolar yig‘iniga bo‘lingan. Bular Shergo‘rg‘on, Jomboy, Qangli, Juriyat, Dehqonobod, Qoramo‘yin, Qo‘ng‘irot, Xolvoyi. Tuman markazi Jomboy shahri bo‘lib aholisi 16120 kishi. Jomboy tumani aholisi 2012 yil 1-yanvar holatida 138040 kishini tashkil qilgan. Samarqand shahridan Jomboygacha bo‘lgan masofa 13 kilometr. Tuman hududi asosan tekisliklardan iborat bo‘lib, G‘o‘bdin tog‘i va tog‘ oldi tekisligida joylashgan. Tuman hududini suv bilan taminlovchi asosiy manba bo‘lib Mirza va Bulung‘ur kanallari hamda Polvon arig‘i hisoblanada va ular asosan Zarafshon daryosidan suv oladi. Bu ariqlardan o‘nlab mayda ariqlar boshlanadi va tumanning hamma hududlarini kesib

o'tadi. Samarqand viloyati o'rmon xo'jaligiga qarashli Zarafshon qo'riqxonasi Jomboy tumani hududida ya'ni Samarqand viloyatining janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Qo'riqxonaning markaziy qismi viloyat markazidan 5km o'zoqlikda Toshkent-Termiz katta yo'lidan 3km va Jomboy temir yo'li raz'ezdigacha 4km o'zoqlikda joylashgan. Qo'riqxonani umumiy yer maydoni 2352 gektarni tashkil qiladi. Shundan 1095 gektari Jomboy hududida joylashgan, qolgan 1257 gektari Bulung'ur tumani hududida joylashgan. Qo'riqxona tarkibi Zarafshon daryosi bo'ylab har-xil o'simliklar, butazorlarga, shuningdek, o't-o'lanlarga boy bo'lgan zonadir. Jomboy tumani hududi asosan tekisliklardan iborat bo'lishiga qaramay, uni tabiiy geografik jihatdan ikki qismga bo'lish mumkin, ya'ni tekislik va tog' hamda tog' oldi qismlari. Tumanning tekislik qismi 550-560 metr balandkida joylashgan bo'lib asosan sug'oriladigan yerlardan iborat.

Tekislikni bu qismi shimoliy-sharqdan, janubiy-g'arbga, ya'ni Zarafshon daryosi tamon qarab ketgan qiya nishablikdan iborat. Geomorfologik tuzilishi bo'yicha tuman hududini to'rt qismga ajratish mumkin.

1. Zarafshon daryosi qayiri.
2. Birinchi va ikkinchi terrassalar.
3. Tog' oldidagi prolyuvial va delyuvial jinslari qoplangan to'lqinsimon yon bag'rlar.
4. Kristall jinslar bilan qoplangan tog' hududi.

Bu relief tiplari kelib chiqishiga ko'ra to'rt qismga bo'linadi, shularga qo'shimcha qilib inson faoliyati ta'sirida hosil bo'lgan rel'flarni ham kiritish mumkin. Zarafshon daryosi qayir shaklidagi 50-150 metr kenglikni egallaydi. Bu yerda aliyuvial qayirga tosh, qum, loylardan tuzilgan. Daryo suvi sathidan 0,5-1,0 metrgacha ko'tarilib turadi. Bir vaqtlar, ya'ni bundan 2000-2005 yil oldin kanallar qazilgan paytda qayir kengligi 1900-2000 metrni ba'zi joylarda esa 5000 metrga yetgan. Birinchi terrasa katta maydonni egallaydi. Uning kengligi 2-5km bo'lib, daryo suv sathidan 2-5m balandlikda joylashgan. Birinchi terrasa va ikkinchi terrasa o'rtasida keskin tabiiy chegara yo'q. Chegara ba'zi joylarga ko'tarilma uvat

shaklida saqlangan. Ko'tarilmaning balandligi 1,5-2 m ni tashkil qiladi. Juda ko'p joylarda yer tekislash ishlarida bu tabiiy chegara tekislanib yuborilgan. Ikkinchi terrasa suv sathidan 3,5- 7m ba'zan 10m balandlikda bo'lib, u asta sekin tog' oldi tekisligi bilan qo'shib ketgan.

Prolyuvial va delyuvial jinslari qoplangan tog' oldi adir hududi keng maydonni egalaydi. To'lqinsimon joylar asosan usti gumbazsimon tekisliklar va ular o'rtasidagi chuqurliklardan tarkib topgan. Tekisliklarning nisbiy balandligi 3-7m bo'lib tog' tamon parchalanganligi oshib boradi. G'o'bdin tog'ining janubiga qaragan yonbag'irlarida polyazoy slanitslarini tarkib topgan bo'lib, erozion shakkillar bilan turli qismlarga parchalangan. Tog'ning Jomboy tumani hududidan nisbiy balandligi uncha katta emas ya'ni 300-600 metrni tashkil qiladi. Doimiy oqadigan suvlar yo'qligidan chuqur erozion shakkillar vujudga kelgan. Lekin vaqtinchalik bahorgi va qishgi suvlar tog' yonbag'irlarini turli kattaliklardagi soylar bilan parchalangan.

Iqlimi. Jomboy tumanining iqlimi keskin kontenintal bo'lib, yozda o'zoq davom etadigan issiq va quruq, qishda esa mo'tadil sovuq havodan iborat. Iqlimning kontenintaligi bir kunda va yil fasillari mobaynida havoni tez-tez almashinib turishi orqali namoyon bo'ladi. Samarqand meteorrologik stansiyasining ma'lumodiga ko'ra havoning yillik o'rtacha issiqligi o'zoq davomiylik paytida 13,4 darajada bo'ladi. Yoz barqaror issiq va quyoshli bo'ldi. Iyun-iyul oylarida maksimal issiqlik darajasi 42 darajaga teng. Yilning eng sovuq davri dekabr-yanvar bo'lib, havoni o'rtacha 0,5-1 darajada bo'ladi. Bahor nisbatan ham davom etuvchi qisqa fasildir. Bu esa yozning erta boshlanishiga va o'zoqroq davom etishiga bog'liq. Yilning o'rtacha yog'ingarchilik ko'p yillik davr mobaynida 328 mmga teng. Yog'ingarchilik asosan qish va bahorda bo'ladi,. Qor asosan dekabr va yanvar oyida yog'adi va qor ko'p yoqqan yillar yer sadhida bir oygacha erimay turadi. Ba'zi iliq yillari yerda hatto qor qoplami hosil bo'lmaydi. Tuman hududida shimoliy-sharq , sharq va janubiy sharq tomondan esdigan shamollar tezkor shamollar hisoblanadi. Shamolning o'rtacha tezligi 1,4 metrdan

oshmaydi. Bahor paytida shamolning tezligi 1,8 metr sekundgacha boʻladi. Bazar tezligi 4-5 metr va tezkor shamol esadi. Vegetatsion davrining davomi yilligi paxtadan va boshqa issiqsevar oʻsimliklardan oʻrtacha navdagi yaxshi hosil olish mumkin. Quyida Jomboy tumaniga yaqin hududlardagi meteorologik stansiyalardan maʼlumotlar keltiramiz.

1-jadval

Oylik va yillik oʻrtacha maksimal va minimal havo harorati

Stansiyalar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	yil
Narimon	- 1,2	1,3	7,1	14,1	19,9	24,4	22,0	25,2	20,2	13,1	7,0	2,5	13,4
Samarqand	- 0,2	2,3	7,9	14,4	19,9	24,0	25,8	24,2	19,3	13,1	7,2	3,0	13,7
Bulungʻur	- 0,6	0,6	6,6	13,0	18,9	24,2	27,0	24,8	19,2	12,2	5,6	0,4	12,5
Gʻallaorol	- 1,8	0,6	6,3	13,2	18,9	24,4	27,2	25,4	20,0	20,0	6,0	1,4	12,9

Oʻrtacha oylik va yillik yogʻin miqdori (mm hisobida)

2-jadval

Stansiyalar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	yil
Narimon	41	34	59	55	32	7	3	0	1	15	30	35	312
Samarqand	41	34	59	64	36	8	3	0	1	7	30	35	328
Bulungʻur	47	60	51	62	22	10	0	2	2	19	34	36	405
Gʻallaorol	40	48	77	63	29	7	2	1	1	20	28	41	374

Jadvaldagi maʼlumotlardan shu narsa koʻrinib turibdiki yil davomida faqat yanvar oyida havoni oʻrtacha harorati 0 darajadan past sovuq hisoblanadi. Fevral va dekabr oylarida oʻrtacha harorat +1 darajadan yuqori oylik va yillik yogʻin

miqdorlari ham fasllarda bir hil emas. Eng kam yog'in iyul, avgust va sentyabr oylariga to'g'ri keladi. Eng ko'p yog'in mart va aprel oylarida tushadi. Qor qoplami yupqa bo'lib o'zoq turmaydi. Sovuq qor qalin yillari bir oygacha qor erimaydi, iliq nam yog'inli yillari qorning yerda yotishi bir necha kun bo'lib tezda sovib ketadi.

Suv manbalari.Jomboy tumani hududidan Zarafshon daryosi oqib o'tadi. Bu daryo tumanning janubida joylashgan, qolgan qismida katta-kichik o'nlab kanallar bilan kesilgan. Eng katta kanallarga Mirzaariq hisoblanadi. Bundan 500 yil avval ulug'bek davrida qazilgan Mirza ariqdan esa yuzlab mayda ariqlar bo'linib Jomboy hududini kesib o'tadi. G'o'bdin tog'idan oqib keladigan suvlar soylarda faqat bahorda bo'ladi. Yoz oylari ko'p bo'loqlar quriydi va soy suvi ham quriydi. Keyingi yillari ariq qazilib G'o'bdin tog' etagidagi tog' oldi adir zonasi ham o'zlashtirildi. Yer osti suvi chuqurligi har bir joy sharoitiga bog'liq. Daryo yoqsida bo'loq, zah, ko'l bo'lib yotgan yerlar bor. Bularda suv yozda ko'payadi va suv sathi ko'tarilib ketadi. Yozda daryo sohilida zah yerlar, botqoqliklar ancha maydoni egallaydi. Demak daryo sohilida grunt suvlarining sathi 0,5-1 metrni tashkil qiladi.

- 1- terrassada grunt suvlari 2,5-3metr
- 2- terrassada 4-6metr
- 3- terrassada 8-12metrda yotadi.

Tog' oldi tekisligida grunt suvi 15-20 metr. Adir zonasida 35-40 metr chuqurlikda joylashgan. Ko'plab kanal va ariqlarning o'tkazilishi bu qonuniyatni bo'zadi. Yangi kanallar, ariqlar, yoqasida va shularga yaqin joylarda grunt suvining chuqurligi yer yuzasiga yaqin keladi. terrassada va yuqori qayrda pastkam chuqur zah uchastkalar ko'p. Bu yerlarda grunt suvi atrofdagi uchastkalarda ko'p. Bu ayniqsa qadimiy ko'l va botqoq joylarda grunt suvi yer yuzasidan 1-1,5metr chuqurda yotadi.

Tuproqlari.Tuman yerlarida asosan tepik bo'z alliyuvial o'tloq, o'tloq va o'tloqli botqoq tuproqlar tarqalgan. Tuproqlar iqlim sharoiti va qishloq xo'jalikda

uchun foydalanish bo'yicha tuman hududi 2-qisimga bo'linadi. Birinchisi sug'oriladigan yerlar tuproqlari. Ikkinchisi G'o'bdin tog'i va tog' tizmalaridan iborat lalimikor yerlar va yaylov tuproqlar tashkil qilgan.

Sug'oriladigan yerlardagi tuproqlarni ham ikkiga ajratish mumkin.

1- Qadimiy sug'oriladigan yerlar.

2- Yangi o'zlashtirilgan yerlar.

Qadimgi sug'oriladigan tuproqlar daryoning birinchi va ikkinchi terrassalarini egallaydi. Ular o'tloq, chimli, o'tloq tuproqlardan tarkib topgan. 0,5-1 metr bo'lib bu qadimdan sug'oriladigan yerlar sifatida foydalanib, qadimdan uzliksiz ishlatilib kelinayotgan bu yerlar tuproqlarida aniq bo'linadigan yerlar mavjud. Bu yerlar tuproqlarda aniq bo'linadigan A va V gorizantlar yaxshi ajratilmagan gumus miqdori 0,5-1 grammni tashkil qiladi. Har yili meniral va mahalliy o'g'itlar solinishi tuproq hosildorligini bir miyorda saqlab turadi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda tiniq bo'z tuproqlar tarqalgan bundan 20-30 yil ilgari bu yerlar yaylov sifatida foydalanib kelinadi. Bu tuproqlarda agro irrigatsion gorizont qalinligi 30-50 sm bo'lib gumis miqdori 0,8-1,2%ni tashkil qiladi. Asosan ozgina to'lqinsimon yuzalarda tarqalgan bu tuproqlar irrigatsion erroziyasi ro'y berib turadi. Tog' oldi zonasida bo'z va toshloq tipik tuproqlar tarqalgan. Sozlov mexanik tarkibli bo'z tuproqlar qir tepaliklar va yonbag'irlarda lyossimon ona jinslar o'stida tarkib topgan. Toshloq bo'z tuproqlar esa soy ichlarida, ularning etaklarida alohida uchastkalar uchraydi. G'o'bdin tog'ining yonbag'irlarda tipik bo'z tuproqlari bilan almashinadi. Ularning mexanik tarkibi ham turlicha bo'lib gumis miqdori 1,5-2,5%ni tashkil qiladi. Qalin sozlov mexanik tarkibi tog' bo'z tuproqlari qirlarning shimolga qaragan yon bag'irlarida va qalin yoysimon jinslar o'stida shakillangan. Bu yerlar asosan yaylov sifatida foydalaniladi. Tuman hududida qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqsiz yerlar ham bor. Ular unqir-chunqirliklar, Zarafshon daryosining shag'al qumtoshlaridan iborat.

1.2. Aholisi va mehnat resurslari

Aholi jamiyatining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Odamlar ishlab chiqarish vositalarini bunyod etadilar, ularni harakatga keltiradilar, moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratadilar. Jomboy tumani statistika boshqarmasining ma'lumotiga ko'ra tumanining aholisi 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 138040 kishini tashkil qiladi. Aholining o'rtacha zichligi 1km²ga 248,3 kishi Jomboy tumani markazi Jomboy shahri hisoblanadi va shaharning aholisi esa 16120 kishidan iborat. Jomboy tumanida bitta shahar ya'ni Jomboy shahri bo'lib, uning aholisi yuqorida ko'rsatildi. Tumanda 5ta shaharchalar mavjud bo'lib, bular Dehqonobod-4699 kishi, Eski Jomboy-4741 kishi, Xo'ja-2115 kishi, G'azra-3145 kishi va Kattaqishloq-2340 kishidir. Tumanda shahar aholisi 33457 kishini yoki jami aholining 24,2 foizini tashkil qiladi. Tumanda jami 38 ta mahalla fuqorolar yig'ini mavjud bo'lib, shundan 11 tasi shahar mahallalarini tashkil qiladi. Jomboy tumanidagi 8 ta QFY lari tarkibida jami 134 qishloq aholi punktlari mavjuddir. Tuman shahar aholisining 16181 kishisini yoki 48,4 foizini erkaklar va 17276 tasini yoki 51,6 foizini esa ayollar tashkil qildi. Tuman qishloq joylarida yashovchilar soni 2011 yilda 104583 kishini yoki jami aholining 75,8 foizini tashkil qiladi. Tuman qishloq aholisining 52726 tasini yoki 50,4 foizini erkaklar va 51857 tasini yoki 49,6 foizini esa ayollar tashkil qilmoqda. Jomoy tumanida ushbu ma'lumotni tahlil qiladigan bo'lsak shahar aholi sonida erkaklar soni ayollarnikidan 2 foizga kam bo'lsa, qishloq joylarda erkaklar soni ayollarnikidan 1 foizga ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Tumanda yirik aholi soniga ega bo'lgan qishloqlar ham mavjud. Bularga Qangli-4577 kishi, Juriyat-3008 kishi, Tut-2886 kishi, Sarichashma-3299 kishi, Holvoyi-2794 kishi va boshqalardan iborat. Tumanda 8 ta qishloq fuqorolarning yig'inlari mavjud bo'lib ularning aholisi quydagi jadvalda berilgan.

**Jomboy tumani fuqoralar yig'ini va jamoat tashkilotlarining tarkibi. (2012 yil
1-yanvar holatida)**

3-jadval

Qishloq fuqorolar yig'inlari	Markazining nomi	Tuman markazidan uzoqligi (km)	Qishloq aholi punktlar soni	Doimoy aholi soni
Dehqonobod	Dehqonobod	5	23	13239
Juriyat	Naymantepa	11	17	18820
Jomboy	Yeski-Jomboy	6	20	10721
Qangli	Boybegim	15	13	12108
Halvoyi	Sarichashma	5	16	16457
Qo'ng'iro't	G'azira	28	10	8655
Sherqo'rg'on	Sherqo'rg'on	35	23	14333
Qoramuyin	Beshbola	9	12	10147

Tuman aholisining milliy tarkibi xilma-xildir, asosan to'rtta millatga mansub kishilar ko'prog'ini tashkil qiladi.

1. O'zbeklar-85%
2. Ruslar-7,2%
3. Tojiklar-5,7%
4. Tatarlar-1%
5. Boshqa millatlar-1%

Aholi yoshining tarkibi qo'ydagi jadvalda ko'rsatilgan.

Aholining yoshibo'yicha tarkibi (01.01.2011y)

4-jadval

Aholining yoshi	Aholining soni	% Hisobida
0-7 yoshgacha	26100	18,9
8-12 yoshgacha	32940	23,9
13-16 yoshgacha	8800	6,4
17-50 yoshgacha	59400	43,0
50 dan yuqori	10800	7,8

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, tumanda 2010 yilda 0-7 yoshgacha bo'lganlar 25100 tashkil qilib bujami aholining 18,9 foizini, 8-12 yoshgacha bo'lgan o'spirinlar esa 32940 kishi bo'lib, bu jami aholining 23,9 foizini, 13-16 yoshgacha bo'lgan bolalar esa 8800tani yoki 6,4 foizni tashkil qilmoqda.

Tumanda aholining mehnat yoshiga yetganlar asosiy o'rinni egallaydi. Tumanda 17-50 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 43 foizini tashkil qiladi. Tumanda 50 yosh va undan ortiq bo'lganlar jami aholining 7-8 foizini yoki 10800 kishini tashkil qilmoqda. Umuman olganda tuman aholisi sonida barcha yoshdagilarning ulushi yillarga nisbatan o'zgaruvchanligi yuqori bo'lmoqda. To'g'ilgan bolalar sonining oshib borishi bilan birga yosh bolalar soni ko'payib bormoqda. Bu esa o'z navbatida yoshlarni o'qish, bilim olish hamda ish bilan bandligini oshirishga qaratiladigan ishlarni yil sayin oshirib borish talab etiladi.

Aholining tabiiy o'sishi.Jomboy tumani Samarqand viloyatining boshqa tumanlari kabi aholisi tabiiy ko'payish darajasi yuqoriligi bilan harakterlanadi. Aholining tabiiy o'sishi va ko'payishi hamda halq asosan tug'ulish darajasining o'sishi va o'limning kamayishi, halq salomatligini saqlash, aholi moddiy va ma'naviy turmush darajasining yahshilanishi borasida yuz bermoqda. Bulardan tashqari quydagi faktlar ham aholining tabiiy ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

1. mahalliy aholida oila, nikoh va turmush munosabatlariga ayrim tarixiy an'analarning mavjudligi .
2. Tugʻulish darajasining yuqoriligi.
3. Oʻlimning kamligi.

Yuqoridagi sotsial-iqtisodiy xususiyatlardan tashqari, oʻlim darajasi past boʻlishiga tabiiy sharoit ham taʼsir koʻrsatadi. Mana shu sabablar umuman aholini tabiiy koʻpayishiga olib keluvchi faktorlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda aholining tabiiy oʻsishi 2010 yilga nisbatan pasaygan, sababi nisbatan oʻlimning koʻpayishidir.

Tumanda aholining tabiiy oʻsishi koʻrsatkichlari (kishi hisobida)

5-Jadval

yillar	Tugʻulish	Oʻlim	Tabiiy koʻpayish
2001	2851	641	2210
2002	2876	657	2219
2003	2790	561	2229
2004	2705	549	2136
2005	2806	627	2176
2009	2928	548	2380
2010	3060	569	2491

Ushbu jadval tahlilidan shuni koʻrish mumkinki, tumanda 2011 yilda jami 2851 kishi toʻgʻilgan boʻlsa 641 kishi vafot etgan. Tabiiy kupayish esa 2210 kishini tashkil etgan. 2009 yilga kelib tumanda toʻgʻilganlar soni 2928 tani, oʻlim esa 548 kishini, tabiiy oʻsish esa 2380 kishini tashkil qilgan. Bu jihatdan toʻgʻilganlar 2009 yilda 2001 yilga nisbatan 77 kishiga oshgan boʻlsa, aksincha oʻlim 93 kishiga kamaygan. Tabiiy kupayish 170 kishiga oshganligini koʻrishimiz mumkin. Oʻlimning kamayishiga tumanda aholining ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan ahvolini yaxshilanishi, bolalar va kattalar salomatligiga berilayotgan eʼtibor sabab, meditsina sohasiga qaratilayotgan eʼtibor, bolalar oʻrtasida olib borilayotgan profilaktika ishlarini oʻz vaqtida olib borilayotgali bilan belgilanadi. 2010 yilda

tuman bo'yicha 3060 bola to'g'ilgan bo'lsa, o'lim 569 tani, tabiiy kupayish 2491 tashkil qilgan. To'g'ilganlar soni 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 132 kishiga, o'lganlar esa 11 kishiga oshgan. Tabiiy kupayish esa 111 kishiga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman tumanda to'g'ilishning kupayib borishi, aholi sonining oshib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanish masalalari. Aholining mehnatga yaroqli qismi mehnat resurslari hisoblanadi. Respublikamiz ahlisini mehnatga yaroqli bo'lgan qismi erkaklar 16 yoshdan 59 yoshgacha, ayollar esa 16 yoshdan 54 yoshgacha bo'lganlarni tashkil qiladi. Jomboy tumanida ham aholini yashash sharoiti hamda resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori hisoblanadi. Mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda Jomboy tumanida korxonalar, xizmat tashkilotlari, sog'liqni saqlash, ma'orif, madaniyat va boshqa tashkilot hamda kichik biznes va xususiy korxonalarning ahamiyati kattadir.

**Jomboy tumanida aholining mehnatga yaroqli bo'lgan qismi to'g'risida
ma'lumot. (ming kishi. 2001-2010 yillar)**

6-Jadval

Aholining turli sohalarda bandligi	2001	2002	2003	2004	2005	2010
Aholining soni	118,1	118,7	120,1	121,1	126,3	138,0
Shundan mehnatga yaroqli aholi	55,1	54,4	56,8	57,6	58,4	70,2
Mehnatyoshidagi mehnatga yaroqli aholisoni	50,4	50,1	51,2	53,4	54,6	66,7
Ishlovchi o'smirlar va nafaqaho'rlar	1,3	1,2	1,1	1,1	1,2	1,3
Iqtisodiy faol ishchi kuchi	40,2	42,1	43,6	44,4	45,0	46,2

Jomboy tumanida aholini o'sishi bilan mehnatga yaroqli aholini turli sohalardagi bandligi yillar bo'yicha farq qilib bormoqda. Tumanda mehnatga yaroqli aholi 2001-yilga 55,1 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, aksincha, 2010 yilda 70,2 ming kishini tashkil qilgan va mehnatga yaroqlilar 2010 yilda 2001 yilga nisbatan 15,1 ming kishiga yoki 128 foizga oshgan. Buning asosiy sabab tumanda yangi sanoat tarmoqlarining kupayishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik berilayotgan e'tibor sabab, o'sish darajasi pasayishi, aholini chetga ishlash uchun ketishi va boshqa omillar kamayishiga olib keldi.

Tumanda mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi 2001-y da 50,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda 66,7 ming kishini tashkil qilgan holda 16,3 ming kishiga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Iqtisodiy faol ishchi kuchi 2001 yilda 40,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa 2010 yilda bu ko'rsatkich 46,2 mingtani yoki 6 mingtaga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Jomboy tumani aholisining mehnat resurslariga bandligi. 2010-yilda tumanda aholining mehnatga yaroqli kishilar 70240 kishini tashkil etgan bo'lsa, mehnat yoshidagi mehnatga yaroqli aholi esa 66740 kishini tashkil qiladi. Ishlovchi o'smirlar va shaharlar 1.3 kishini, faol aholi esa 46,2 ming kishini tashkil qiladi. Mehnat yoshidagi mehnatga yaroqli aholi soni 2001-yilga nisbatan 16.3 ming kishiga etganini ko'rish mumkin.

Jomboy tumani aholisining mehnat resurslardagi bandligi (ming kishi. 2006-2010 yillar) 7-Jadval

Aholini bandligi darajasi	2006	2007	2008	2009	2010
Band aholi. jami	40,2	42,1	43,6	44,4	45,1
Iqtisodiyodga band aholi	27,1	28,1	28,8	29,2	30,1
Shundan:	14,1	14,9	15,1	15,7	16,1

Ishlab chiqarishga band aholisi					
Uy, joy komunal xo'jaligi va aholini ishlarda bandligi	8,9	9,4	9,5	9,8	10,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot	1,0	1,0	1,1	1,3	1,4
Halqta'limi, madaniyat va san'at	1,1	1,8	2,7	2,4	2,5
Boshqa band aholi toifalari	0,3	0,2	0,2	0,1	0,1
Mehnat birjalarida ro'yixatda turgan ishsizlar	0,44	0,06	0,07	0,06	0,06

Jomboy tumanida aholini mehnat resurslari bilan bog'liq darajada 2010-yilda 45,1%ni tashkil qiladi. 2006-yilga nisbatandan qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkichni yillar davomida o'sib borishini ko'rsatishimiz mumkin. Tumanda iqtisodiyotda band aholi 2006 yilda 27,1 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 30,1 mingtani yoki 3 ming kishiga kupayganligini ko'rishimiz mumkin. 2010 yilda iqtisodiyotda band aholining 16,1 mingtasi ishlab chiqarishda yoki 53 foizini, Uy joy, kamunal xo'jaligida 10,1 ming yoki 33,5 foizni tashkil qilmoqda. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotda 1,4 ming yoki 4,6 foiz, halq ta'limi, madaniyat va san'atda 2,5 ming yoki 8,3 fizni va boshqalar 0,6 foizni tashkil qilmoqda. Kichik va o'rta korxonalarni bunyod etilishi, aholini maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini yaxshilashni aholini ishlab chiqarishning barcha sohalaridan bandlik darajasini oshishiga olib kelishi muqarrardir. Umumuman olganda Jomboy tumanida aholi mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, aholini bandlik darajasini yanada yaxshilash, aholini ish bilan to'liq ta'minlashimiz mumkin. Tumanda aholini mehnat resurslari bilan to'liq taminlash uchun qo'ydagilarga e'tibor berish kerak.

- Qishloq aholisini mehnat ishi bilan ta'minlashda mikrofirmalar, kichik va o'rta korxonalar qurishimiz kerak.
- Qishloq joylarda shaharlardagi yirik korxonalarning shahobchalarini ochishimiz kerak.

Yengil sanoat korxonalarining sexlarini ochishimiz kerak.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni shu hududa qayta ishlab chiqarish uchun qayta ishlovchi sanoat korxonalarini qurish lozim.

1.3. Transporti va tashqi aloqalari

Tumanda transport halq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi va joylanishida muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Tumanda yuk tashish avtomobillar va temiryo'l transportlari orqali amalga oshiriladi. Jomboy tumanida sanoatni rivojlantirish uni zaruriy xom ashyo bilan ta'minlashda temiryo'l transportining ahamiyati kattadir. Tuman markazidan o'tgan temiryo'l halq xo'jaligiga kerakli bo'lgan mahsulotlarni o'z vaqtida is'temolchilarga yetkazishda katta ahamiyatga egadir. Chunonchi tuman qishloq ho'jaligida yetishtirilgan xom-ashyoni o'z vaqtida yetkazishda temiryo'l transportining xizmati beqiyosdir. Avtomobil transporti tumanda asosiy transport hisoblanadi. Avtomobillar orqali tumanda yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan barcha xom-ashyolar o'z vaqtida is'temolchilarga yetkaziladi. Avtomobil transporti orqali tuman qishloq ho'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar tuman markaziga, Samarqand shahriga va viloyatlarga yetgazishda muhim rol o'ynaydi. Tuman avtomobil transportining yana bir qulayligi shundaki, bu yerdan katta O'zbekiston trakti yo'lini o'tganligidir.

Tuman statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra 2010 davomida ommaviy transportdan foydalanish ko'rsatkichlari o'tgan yilga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga yega bo'lib bormoqda. Tumanda barcha yuklarni avtomobil transporti orqali tashish 2010 yilda 2728,7 ming tonnani tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich 2009 yilda 2312,7 ming tonnani tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich

2009 yilda 2312,7 ming tonnani tashkil qilgan edi, 2010 yilda 2009 yilga nisbatan o'sish 118 foizni tashkil qilgan. Yuk aylanmasi esa 63757,5 ming tonna kmga, yo'lovchilarni avtobus va taksilar bilan tashish 16898,5 ming yo'lovchini, yo'lovchi aylanmasi 130311,0 ming yo'lovchi. Bundan ko'rinib turibdiki tumanida yuk va yo'lovchilarni tashishda katta yutuqlarga erishilmoqda. Chunki har yili bu ko'rsatkich olib borilmoqda. Shunday ekan tuman hududlarida yuk va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yanada oshirish, yo'llarni o'z vaqtida ta'mirlab borish katta imkoniyatlar hamda vaqt va masofani, yoqilg'ini tejashga shu bilan birga xom ashyolarni o'z vaqtida kayta ishlash korxonalari, iste'molchilarga yetkazishda hamda aholini manzillariga belgilangan vaqtda hamda havzizliklari ta'minlangan holda yetkazib borishiga xizmat qilish shubhasizdir. Shu bilan birga magistral yo'l atroflarida aholi uchun qulay bo'lgan xizmat ko'rsatish shaxobchalarini ko'proq tashkil etishga xizmat qilish bilan birga, aholini yangi ish o'rinlarini yaratishga asos bo'ladi. Bu esa tumanda yetishtirilgan mahsulotlarni chetga chiqarishda va tumanga zarur bo'lgan xom ashyolarni olib kelishda muhim ahamiyatga egadir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tumanda iqtisodiy-ijtimoiy omillardan foydalanishda qator tadbirlar ishlab chiqarishni taqoza etadi. Tumanda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay tabiiy sharoit mavjud, ammo tabiatdan bir tomonlama foydalanish natijasida ekalogik vaziyatni keskinlashtirishni oldini olish lozim. Tumanda aholini mehnat bilan taminlash darajasini oshirish aholini salomatligini yaxshilash, qishloq joylarda maishiy, madaniy, meditsina xizmatidan foydalanishni oshirish talab etiladi. Tumanda uy mehnatini keng joriy qilish va halq hunarmandchiligini rivojlantirish yordamida aholini ishlab chiqarishda bandlik darajasini oshirish kerak. O'rta va kichik korxonalarni aholi ko'p bo'lgan qishloq joylarda qurish va ularni ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, ayollar mehnatidan keng fodalanish, yoshlarni ayniqsa kollej bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish kabi o'ta muhim vazifalarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

II-BOB JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARI VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

2.1. Tumanda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va uning rivojlanish xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi mamlakatning aholisi uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xom-ashyo yetkazib beradigan asosiy manba hisobalanadi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdan maqsad mamlakatda yil sayin oshib borayotgan aholi sonining o‘sishi bilan uzviy bog‘liqdir. Aholi sonini oshishi bilan go‘sht, sut, tuxum, meva, uzum va boshqa mahsulotlar bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Umuman mana shunday vazifalarni hal etmoq uchun biz qishloq xo‘jaligida mustahkam iqtisodiy negiz yaratib aholini ham oziq-ovqat ham sanoatni xom ashyo bilan, aholni esa yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlashimiz kerak bo‘ladi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohatlarni ya’nada chuqurlashtirishdan maqsad yerlarni haqiqiy egasi bo‘lib borayotgan fermer, dehqon tadbirkor va ishbilarmonlar qo‘liga topshirish, qishloqda mulkdorlar sinfini shakillantirishdan iborat.

Respublika qishloq ho‘jaligining istiqboli uchun va halq modiy farovonligini oshirish ko‘p jihatdan uni rivojlantirishga bog‘liq. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishdan maqsad yerni haqiqiy dehqon, tadbirkor va ishbilarmonlar qo‘liga topshirish qishloqlarda mulkdorlar safini shakillantirishdan iboratdir. Iqtisodiyotni istiqbolda rivojlantirishda katta ta’sir ko‘rsatuvchi qishloq xo‘jaligiga yordam ko‘rsatish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Vazirlar mahkamasining ”2004-2006 yillarida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora–tadbirlari to‘risida”gi qarorida fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilganva ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu qarordan kelib chiqqan holda Jomboy tumanida

mavjud resurslardan oqilona foydalanish qishloq xo‘jalik tarmoqlariva sanoat ishlab chiqarishni tubdan yaxshilash, aholini xususan qishloq aholisini yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlash muhim ahamiyatga egadir. Tuman iqtisodiy va ijtimoiy o‘rinishni qo‘shimcha manbalarini yaratish hamda tadbirkorlik, fermerchilikni ahamiyati o‘rni, beqiyos kattadir. Respublikamiz iqtisodiyotini istiqbolda rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga shu jumladan fermer xo‘jaliglariga yordam ko‘rsatish bugangi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Vazirlar mahkamasining 2005-2010 yillardagi fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaroridagi fermer xo‘jaliklari yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, ularni moddiy texnik, kredit resurslari bilan ta‘minlash, xizmat ko‘rsatish tizmini rivojlantirish hamda mehnat munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan ko‘pgina tadbirlar belgilangan va ular amalga oshirilmoqda. Past rentabilli va zarar ko‘rib ishlayotgan shirkat xo‘jaliklari asta-sekinlik bilan tugatilib ular o‘rnini fermer xo‘jaliklar egallab bormoqda. Bu jarayon 2011-yil to‘gatilgan. Zarar ko‘rib ishlayotagan xo‘jaliklar yuqori rentabilli fermer xo‘jaliklariga qushib berildi. Jomboy tumanida ham bu jarayonlar hukumatimiz qaror va farmonlari asosida olib borilmoqda. Bu farmonda 2011-yilda barcha zarar ko‘rib ishlayotgan fermer xo‘jaliklari yer maydonlari va chorva mollari yuqori rentabilli fermer xo‘jaliklariga qushib berish yoki boshqa fermer xo‘jaligini tashkil etish ko‘zda to‘tilgan edi. Jomboy tumanida bu ishlar hozirgi kunda to‘liq amalga oshiriladi. Tumandagi mavjud barcha past rentabilli fermer xo‘jaliklari tugatilib ular o‘rnini yangi fermerlar egallashdi. Tumanda mavjud yerlar tender asosida ya‘ni har bir yer maydoniga fermer bo‘lish istagida bo‘lgan fuqorolarni arizalari qabul qilinib ularga qo‘yilgan talablar asosida mavjud yerlar taqsimlab beriladi. Yangi tashkil qilingan fermer xo‘jaliklari davlat tomonidan 2 yillik soliqlardan ozod bo‘lishligi ham fermerlarni o‘z imkoniyatlarini yanada oshishga, moliyaviy, texnikaviy salohiyatini yuksalishiga yordam bermoqda. Tumanda 2010-yilda jami fermerlar soni 518 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2012-yilda 384 tani tashkil qilgan. Tashkil qilingan fermer xo‘jaliklari maydoni 31026 gektar bo‘lib, o‘rtacha har bir fermerga 80.9 gektar yer

maydoni to'g'ri kelmoqda. Ularda band bo'lgan mehnat resurslari 21396 kishini tashkil qilmoqda, o'rtacha har bir fermerga 55 kishiga to'g'ri keladi.

Jomboy tumanidagi fermer xo'jaliklari to'g'risidagi ma'lumotlar
(2008-2012 yillar) 8-jadval

Yillar	Faoliyat ko'rsatadigan xo'jaliklar soni , birligi	Biriktirilgan yer maydoni (gektar)	Bir xo'jalikka to'g'ri keladigan yer	Xo'jalik ishlari soni
2008	1153	31026	26.9	24810
2009	1166	31026	26.7	24900
2010	518	31026	59.9	21790
2011	425	31026	73.0	21002
2012	384	31026	80.9	21396

Ushbu jadval tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, tumanda 2008-yilda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining soni 1153 tani tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010-yilga kelib 635 taga kamayganligini, 2012-yilda esa 2008-yilga nisbatan 769 taga, 2010-yilga nisbatan esa 134 taga kamayganligini ko'rish mumkin. Buning asosiy sabablari prezidentimizning 2012-yil 22-sentabrda imzolagan O'zbekistonda fermirlik faoliyatini tashkil qilishni yanada tashkillashtirish va uni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmoni sababli zarar ko'rib ishlaydigan fermerlarni yer maydonlarini birlashtirishni, ularni istiqbolli deb topgan fermerlarga qo'lib berishga qaratilgan tadbirlar sabab Jomboy tumanida ham fermer xo'jaliklari soni qisqarib ularga bo'lgan e'tibor va talablar bilan belgilandi. 2008-yilda o'rtacha bir fermerga 26,9 gektar yer to'g'ri kelgan

bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-yilda 59,9 gektarni, 2012-yilda esa 80,9 gektarni tashkil qilgan. Fermer xo'jaliklarida ishlovchilar soni 2008-yilda 24810 kishini tashkil qilgan bo'lsa, aksincha 2010-yilga kelib esa 21790 taga, 2012-yilda 21396 tani tashkil qilgan holda, 2008-yilga nisbatan 3414 taga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab fermer xo'jaliklarining soni kamayganligi bilan mavjud ishchilar soni ham kamayganligini ko'rishimiz mumkin. 2012 yil 1-yanvar holati bo'yicha tumanda 35240 dehqon xo'jaliklari mavjud bo'lib, bu viloyatdagi jami dehqon xo'jaliklarining 6,9 foiziga to'g'ri keladi. Dehqon xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlari 7,8 ming gektar bo'lib, bu tumanda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 16 foizini tashkil qiladi. Ushbu yilda 1 ta dehqon xo'jaligiga o'rtacha 0,2 gektar yer to'g'ri kelmoqda. Shunday bo'lsada dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'proq ishlab chiqarish va uni sotish bilan shug'ullanishadi. Dehqon xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi 71 foizni tashkil qilmoqda. Tumandagi bog'dorchilik va uzum yetishtirishda ham dehqon xo'jaliklarining ulushi fermer xo'jaliklariga nisbatan ustun turadi. Tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlari yetishtirishda ushbu tarmoqlar faoliyati oshib boraveradi.

2.2. Yer fondi va undan foydalanish

Qishloq xo'jaligining ishlab chiqaruvchi kuchlari qanday ijtimoiy-iqtisodiy usul bo'lishidan qat'iy nazar, yer uni ishlash vositalari ichida yerning ahamiyati muhimdir. Chunki yer hamma moddiy boyliklarni yaratuvchisi tarmoqlarda zaruriy moddiy sharoit bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda yerning ahamiyati katta bo'lib, asosiy mahsulotlar uning zaminida yetishtiriladi. Shunday yekan yer resurslari bilan hududlarning tavsiflanganlik darajasiga qarab, bu yerlarda qishloq xo'jaligi yekinlarining turlari geografik joylashuvi kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida sug'oriladigan maydonlarning o'rni katta bo'lib, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ham shu yerlarda yetishtiriladi. Lalmi va yaylov yerlari ham qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibida

muhim o‘rin tutadi. Shunday yekan mavjud barcha yerlardan oqilona va to‘g‘ri foydalana olish uning mahsuldorligini oshirish demakdir. Samarqand viloyatining barcha tumanlarida bo‘lgani kabi Jomboy tumanida ham yer resurslarining cheklanganligi, undan mavjud yerlardan oqilona va to‘g‘ri foydalanish kerakligidan dalolat beradi. Jomboy tumani mehnatkashlarini yerdan to‘g‘ri foydalanish to‘g‘risidagi ko‘rsatmasiga asoslanib, qishloq xo‘jaligini keng ko‘lamda intensivlashtirish asosida har bir qarich yerdan unumli foydalangan holda mo‘l-ko‘l hosil olishga yerishish, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shunga asoslangan holda tumandagi mavjud yer resurslarini tahlil qilib borish va ularni o‘rganish muhim o‘ringa egadir. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqaruvchi kuchlari qanday ijtimoiy-iqtisodiy usul bo‘lishidan qat’iy nazar, yer uni ishlash vositalari ichida yerning ahamiyati muhimdir. Chunki yer hamma moddiy boylik yaratuvchi tarmoqlarida zaruriy moddiy sharoit bo‘lib xizmat qiladi. Jomboy tumani mehnatkashlari yerdan to‘g‘ri foydalanish to‘g‘risidagi ko‘rsatmasiga asoslanib, qishloq xo‘jaligini keng ko‘lamda intensivlashtirish asosida mo‘l-ko‘l mahsulot tayyorlamoqda. Chunki, qishloq xo‘jaligida yer moddiy boyliklar yaratishdagi ahamiyati muhimdir. Tuman qishloq xo‘jaliklari tarmoqlarining gmunosib rivojlanib borishida, undan mo‘l-ko‘l hosil olishda yerdan to‘g‘ri foydalangan holda uni tashkil qilish, mavjud yer resurslarining buzilishidan saqlash hamda asrab avaylash maqsadga muvofiqdir.

Jomboy tumanida mavjud yer maydonlari va ularning holati
(2009-2012 yillar) 9-jadval

Yillar	Jami mayd on	Yekin yerlari				Ko‘p yillik daraxtlar					Bo‘z yerlar	yaylovlar	Qishloq xo‘jalik yerlar jami	Tomarqa yerlar		O‘rmonlar	Boshqa yerlar
		jami	Shu jumladan			jami	Shu jumladan							Xo‘jaliklar soni	Yer maydoni		
			sug‘oriladigan	Shun dan	lalmi		bog‘lar	uzumzorlar	tutzorlar	Mevali ko‘chatlar va boshqalar							
2009	55955	24829	21770	470	2589	2656	1497	201	958	-	75	6251	3384	24908	6120	1717	14307
2010	55955	24730	21770	470	2590	2657	1498	201	958	-	75	6251	33813	24920	6125	1717	14320
2011	55955	24837	21772	-	3065	2562	1411	201	950	-	75	6251	33725	25048	6162	1717	14321
2012	55955	24837	21772	-	3065	2563	1411	201	950	-	75	6251	33726	25116	6166	1717	14316

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Jomboy tumani statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanda jami 55955 gektar yer mavjud bo'lib, shundan jami 31026 gektari yoki 55,4 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tashkil qiladi. Jomboy tumanida qishloq xo'jaligida mavjud 31026 gektar yerlarning 29673 gektari yoki 95,6 foizi sug'oriladigan va qolgan 4,4 foizi yoki 1353 gektari lalmi yerlardan iborat. Aholi ihtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiradigan tarmoqlarning yekin maydonlarini kengaytirish hozirgi kunnig muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Haydaladigan yerlardan tashqi yer fondining umumiy tarkibida yangi tashkil qilingan va ko'pyillik tokzorlar, meliorativ holatini yaxshilash kerak bo'lgan yerlar, daraxt yekiladigan yerlar va boshqa yerlardan iboratdir. Tumanda kup yilik yekinzorlar 2652 gektar bo'lib bu qishloq xo'jaligi yekin maydonlarining 7,8 foizini tashkil qiladi. Shundan 1498 gektari bog'lar, 201 gektar uzumzorlar, 953 gektari tutzorlardan iborat. Tumandajami 75 gektar bo'z, 6251 gektar yaylovlardan iborat. Tumanda jami yermaydonining 6163 gektari yoki 11 foizi tomorqa yerlarini tashkil qiladi. Mavjud tomorqa yerlarining 4428 gektari yoki 73 foizi yekin yerlari, 1079 gektar yoki 17,5 foizini bog' va boshqa mevali daraxtlar maydoni, hamda 602 gektar yoki 9,5 foizini esa imorat bilanband bo'lgan yerlar hisoblanadi. Tumanda 30 ming gektar yerlar bog va sabzotchilik uyushmalari yerlari mejiorativ qurilish holatidagi yerlardan iborat. Shu bilan birga tumanda 1733 gektar o'rmonzorlar mavjud bo'lib u jami yerlarning 3,1 foizini tashkil qiladi. Shundan 60 ming gektari yoki 3,5 foizini ixota daraxtlari va qolgan 1673 gektari yoki 96,5 foizini terakzorlar tashkil qiladi. Tumanda jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 14251 gektarni yoki jami yer maydonini 25,5 foizini tashkil qilmoqda. Tumanda qishloq xo'jaligi tasarrufidagi yerlar yil sayin kamayib bormoqda. Bunga sabab aholi sonining oshishi va yangi oilalarning ko'payishi evaziga shaxsiy tomorqa yerlariga joy ajratilayotganini hamda aholi punktlari hududlarining kamayib borayotganligidadir. Bu esa tumanda mavjud yerlardan to'g'ri va oqilona foydalana talab qiladi. Meliorativ holati bo'zilgan yerlarni ham

qishloq xo'jaligida foydalanish yo'llarini ishlab chiqish va undan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish hozirgi kunning muhim masalalaridan biridir.

Jomboy tumaninig yer fondi va undan foydalanish

(1-yanvar 2011-yil) 10-jadval

	Tuman yer maydonlari	gektar	(%) hisobida
1	Umumiy yer fondi	55955	100
2	Qishloq xo'jaligidagi yerlar.Shundan: sug'oriladigan yerlar	33813	60.3
	holati yomon yerlar	21770	73.3
		470	1.4
3	Ko'p yillik daraxtlar. Shu jumladan	2657	7.9
4	Bog'lar	1498	56.4
	Uzumzorlar	201	7.6
	Tokzorlar	953	36.0
5	Bo'z yerlar	75	0.2
6	Yaylovlar	6251	18.5
7	Boshqa toifadagi yerlar	22442	39.7

Ushbu jadval tahlilidan ham shuni ko'rish mumkinki tumanda qishloq xo'jaligi yerlari jami yerfondining 60,3 foizini,tumandagi yerlar esa 39,7 foizini tashkil qiladi. Boshqa toifadagi yerlarga tomorqa yerlari, o'rmonzorlar, meiliorativ

qo‘shilish holatdagi yerlar hamda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar kiradi.

Tuman yer fondida ekin maydonlarining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan chorvani yem-xashak bilan ashyo bilan ta‘minlashda ekin ekiladigan yerlarning holati, undagi ekin turlarining joylanishi ham muhim o‘ringa ega. Ekin ekiladigan yerlarning aksari sug‘oriladigan yerlarga to‘g‘ri kelashi ham, bu yerlardan samarali va har tomonlama oqilona foydalanishni talab etadi. Tuman statestikasi boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra 2012-yil 1-yanvar holatida tumanda jami ekin maydonlari 30540 gektarini tashkil qilmoqda. Ushbu ekinlarning 13683 gektari yoki 44,8 foizini don va dukkakli don ekinlari , 948 gektar yoki 3,1 foizini kartoshka, 1977 gektar yoki 6,5 foizini sabzavot, 517 gektar yoki 1,7 foizini poliz ekinlari, 2664 gektari yoki 8,7 foizini meva , 459 ga yoki 1,5 foizini uzum, 2478 gektarga yoki 8,1 foizini oziqabob ekinlar, 7814 gektar yoki 25,6 foizini texnika ekinlari ekiladigan yerlar band qilgan. Tumanda mavjud ekin maydonlarining yillar bo‘yicha dinamikasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tuman ekin maydonlari dinamikasi (2012 yil 1- yanvar holati)

11-jadval

Ekinlar nomi	Yillar					2011 yil2007 yilga nisbatan
	2007	2008	2009	2010	2011	%hisobida
Jami ekinlar maydoni (hektar)	27830	28028	28880	29673	30540	109.7
Don va dukkakli don ekinlari	12819	12845	13370	13440	13683	106.7
Texnika	7069	7054	7100	7277	7814	110.5

yekinlari						
Poliz ekinlari	1426	14250	456	500	517	121.4
Uzumzorlar va bog'lar	2876	2984	3020	3090	3123	108.6
Sabzavot va kartoshka	2440	2460	2690	2912	2925	120
oziqbob va boshqa	2200	2200	2244	2454	2478	113

Jomboy tumani mehnatkashlari yerdan to'g'ri foydalanish to'g'risidagi ko'rsatmasiga asoslanib, qishloq xo'jaligini keng ko'lamda intensivlashtirish asosida mo'l-ko'l mahsulotlar tayorlanmoqdalar. Tumanning qishdoq xo'jaligidagi yer maydonlari 33784 gektar, shundan haydaladigan yerlar 30540 gektarni tashkil qiladi. Tuman xo'jaliklari asosan paxta va g'alla yetishtirishga iqtisoslashgan paxta va g'alla maydoni umumiy yekin maydonlarining 70,1 foizini egallagan. Ekin maydonining 8,1 foizini oziq ekinlari va qolgani 21,5 foizni esa sabzavot, poliz kartoshka, bog' va tokzorlar egallagan. Ekinlar strukturasi 2007-2011 yillardagi holatini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki 2011- yilga kelib don va dukkakli don yekini 2007-yilga nisbatan 109,7 foizga, texnika yekini munosib ravishda 106,7 foizga oshgan. Bundan ko'rinib turibdiki tumanda don ham texnika yekini maydonlari ko'paytirilgan. Bu o'z navbatida almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilinmaganligi bilan belgilanadi. Jomboy tumanida yer resurslaridan to'g'ri foydalanishda quydagilarga e'tibor qaratish lozim.

1. Talablarni hisobga olgan holada mahalliy va iqtisodiy sharoitlardan maksimal darajada to'g'ri foydalanish.
2. Qishloq xo'jaligida ximiyaviy o'g'itlardan keng va oqilona foydalanish.
3. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida biologik metodni qo'llab har bir xo'jalikda biologik laboratoriyalar ochish, undan samarali foydalanish.
4. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va undan oqilona foydalanish.

5. Agrotexnika qoidalaridan to'g'ri foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, almashlab ekinni joriy etish.
6. Fan va texnika yutuqlarini qishloq xo'jaligiga tadbiiq etish. Dehqonchilikdagi bu muammolarni Jomboy tumanida to'raligicha bajarishga kirish. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jalik yerlaridan yuqori hosil olishni muhim sharti bo'lib xizmat qilmoqda.

2.3. Tuman qishloq xo'jaligi tarmoqlari tarkibi.

Qishloq xo'jaligi mamlakat aholisining oziq- ovqat, sanoat uchun hom ashyo yitkazib beradigan asosiy manbai hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish mamlakatda yil sayin ortib borayotgan aholi soni oshishi bilan uzviy bog'liqdir. Aholi sonini oshishi bilan go'sht, sut, tuxum kabi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va rivojlantirish har bir tumanning tabiiy va iqtisodiy sharoitiga bog'liq. Har bir hududning tabiiy sharoiti unda qishloq xo'jaligining ma'lum bor sohasini joylashtirish va rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud sanoat va transport sharoitlari yetishtirilgan mahsulotlarni ist'emolga va uni qayta ishlash korxonalariga o'z vaqtida yetkazib berilishi ta'minlaydi. Jomboy tumanida dehqonchilik kup tarmoqli bo'lib, bu yerda paxtachilik, g'allachilik, sabzavodchilik, bog'dorchilik, poliz ekinlari, kartoshkachilik, uzumchilik keng tarqalgan. Tumanda dehqonchilik tarmoqlari ichida paxtachilik yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanar edi. Jomboy tumani azaldan paxtachilik va donga iqtisoslashgan bo'lib, ekin maydonini asosiy qismida paxta va g'alla ekilgan. Bu ikki tarmoqni tuman xo'jaligida almashlab ekish asosida olib borish hisobiga har yili uning maydoni sezilarli ravishda almashishiga guvoh bo'laganmiz. Chunki har yili paxta maydoni kuproq bo'lsa, boshqa yili nisbatan kamaygan. Lekin paxta maydonlari yildan yilga qisqarib bormoqda. Jomboy tumani 2011-yildan boshlab paxtachilik maydonlarini qisqartirish hamda uni sabzavot, meva va uzum mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Jomboy tumani Samarqand shahriga eng yaqin tumanlardan biri

bo'lganligi sababli shahar atrofi xo'jaliklari tarkibiga kiritilib, tumanni keying yillarda qishloq xo'jaligida sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi tarmoqlarga ixtisoslashtirish mavjud paxta maydonlarini qisqartirib boshqa qishloq xo'jaliklari ekinlari yetishtirishga ixtisoslashtirishda. Bu o'z navbatida shahar aholisini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlashda katta o'ringa ega bo'ldi. 2012-yilgi paxta hosili davrida Jomboy davlatga rasman paxta topshirishni to'xtatdi. Lekin shunday bo'lsada paxtaga qadimdan ixtisoslashtirilgani uchun, hamda yer maydonlarini boshqa ekin turlariga ixtisoslashtirish to'liq amalga oshirilmaganligi sabab, Jomboy tumani 2 yildan buyon asosan Oqdaryo tumani uchun paxta ekib bermoqda. Jomboy tumanidagi ayrim fermer xo'jaliklarining paxtachilikdagi boy tajribalaridan kelib chiqarilgan holda ekin yerlarining 20-25 foiziga davlat topshirig'i asosida qushni tuman uchun paxta yetishtirib bermoqda. Jomboy shu davrga har yili o'rta hisobda 7000-7700 gektar yerga paxta ekib undan o'rtacha 22-23 sentner hosil olib kelinar edi. Jomboy tumani statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra tumanda 2013-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami 4183 gektar yerga paxta ekilib o'rtacha har gektar yerdan 22,5 sentner hosil olib, jami 9421 tonna paxta yetishtirib berigan. Bu ma'lumotdan shuni taqqoslab ko'rish mumkinki tumanda 2011-yilda jami 7755 gektar yerga paxta ekilgan va 2012 yilga kelib paxta maydonlari 3500 gektardan ortiqcha qisqartirilib uning o'rniga boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirilgan.

Jomboy tumanida barcha xo'jalik toifalarida paxtachilikning holati

(2008-2012-yillar bo'yicha)

12- jadval

№	Yillar	Yer maydoni (hektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosildorlik (sentner)
1	2008	7764	18168	23.4
2	2009	7756	17994	23.2
3	2010	7745	17500	22.6
4	2011	7755	17524	22,6

5	2012	4181	9421	22.5
---	------	------	------	------

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki tumanda paxta maydonlari 2008-2011 yillar mobaynida ko‘payib borgan. 2012 yilga kelib esa 2011 yilga nisbatan 3574 gektarga kam maydonga paxta ekilgan. Buning asosiy sababi paxta maydoninig qisqarib uning o‘rniga boshqa yekin ya’ni g‘alla maydonlari oshganligi hisobiga bo‘lmoqda. Shu bilan birga hosildorlik 2008-2011 yillarda 23,2 sentnerni tashkil qilgan. Jumladan 2008-yilda 7764 gektar yerga paxta ekilib 8168 tonna paxta olingan bo‘lsa, 2009-yilda bu ko‘rsatgich 7756 gektar yer maydoniga paxta ekilgan bo‘lsada yalpi hosildorlik shunga yaqin bo‘lgan. Tumandagi mavjud paxta maydonlarining 100 foizi endilikda fermerlar ixtiyoriga o‘tmoqda. Buning asosiy sababi yetishtiralayotgan paxtaning hosildorligini oshirish orqali sifatli paxta xom ashyosini yaratishdir. Tumanda mavjud yerga paxta yer maydonlari endilikda fermerlar qo‘lidadir. O‘tgan 2012-yilda jami 1181 gektar yerga paxta ekilib 9421 tonna paxta fermerlar tomonidan yetishtirilib, har bir gektar yerdan o‘rtacha 22,5 sentner paxta yetishtirilgan. Bu albatta juda yuqori ko‘rsatgich hisoblanmaydi. Ayrim fermerlar paxtachilik sohasini endigina tushinib bormoqda va uni hosildorligini qanday oshirish, unga qanday e’tibor qaratish kerak ekanliklarni o‘rganib o‘z malakalarini oshirmoqda. Fermerlar hozirgi kunda qishloq xo‘jalik sohasini yaxshi biladigan mutaxassislarni o‘zlariga jalb qilib, dehqonchilik asrirlarni o‘rganib bormoqda. Bu albatta kelajakda paxtachilikda mo‘l-ko‘l hosil olishga katta hizmat qiladi.

Jomboy tumani fermer xo‘jaliklarda mavjud paxta maydonlarining holati

(2008-2012- yillar bo‘yicha) 13-jadval

No	Yillar	Yer maydoni (hektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosildorlik (sentner)
1	2008	7488	17298	23.1
2	2009	7528	17389	23,1
3	2010	7496	16967	22,6

4	2011	7533	17175	22,8
5	2012	4181	9421	22.5

Jadval tahlilidan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki tumanda fermer xo'jaliklarining paxta maydonlari qisqarib bormoqda. Jomboy tumanida 2008 yilda jami paxta maydonlarining 96,4 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelib, 7488 gektar yerga paxta ekilgan. O'rtacha har gektar yerdan 23,1 sentner paxta yetishtirib jami 17298 tonna hosil olingan. 2013-yilda esa jami paxta maydonlarining 97,0 foizi fermer xo'jaliklari ixtiyorida bo'lib, tumanda yetishtirilgan jami paxtaning 96,6 foizini bergan. 2012-2011 yillar davomida tuman fermayer xo'jaliklarida paxta hosildorligini biroz kamaytirib borganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu o'rganilayotgan yillarda fermer xo'jaliklarda o'rtacha har gektar yerdan 22,6-22,8 sentner paxta olingan. Jomboy tumanida 2012-yilda jami 4181 gektar yerga ekilgan paxtaning barchasi jami fermer xo'jaliklari yer maydonlariga ekilgan va har gektardan 22,5 sentner yoki 9421 tonna paxta yetishtirilgan. Ko'rinib turibdiki 3013- yilda tumanda paxta maydonlari bundan ham qisqarib boradi. Bu esa kelajakda Jomboy tumani xuddi Tayloq tumani singari paxta maydonlaridan holi bo'lib , uning o'rniga donchilk, kartoshka , sabzavot, meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashtiriladi. Bu yesa o'z navbatida aholini ushbu mahsulotlarga bo'lgan ixtiyojini qondirish, bilan birga tumanda qayta ishlash sanoati tarmoqlari sonini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kelajakda tumanda paxtachilik maydonlarini boshqa qishloq xo'jaliklari ekinlari bilan almashtirib ekish va mo'l-ko'l hosil olish uchun quydagi tadbirlarni amalga oshirish kerak.

— Paxta maydonlari o'rniga boshqa ekinlarni to'g'ri tanlash ularni boshqa turdagi har hil ekin maydonlari bilan almashlab ekish;

—Organik va kimyoviy og'itlardan to'g'ri foydalanish, ya'ni har gektar yerga miyoriid ao'g'it berish;

—Agrotexnik qoidalarga amal qilgan holda yekiladigan yekin maydonlari holatini yaxshilash ;

—sugʻorish ishlariga qattiq amal qilgan holda undan toʻgʻri foydalanish;

- Fermerlarga boshqa qishloq xoʻjaliklari yekinlaridan toʻgʻri foydalanishni hamda undan yuqori hosil olishni mukammal oʻrganishni tashkil qilish;

Albata ushbu tadbirlarni oʻz vaqtida olib borilsa kelgusida boshqa qishloq xoʻjaliklarini boshqa ekin turlaridan yuqori hosildorligini va yalpi hosilini oshirishga zamin yaratadi.

Donchilik. Tumanda paxtachilik bilan bir qatorda donchilikning ham ahamiyati katta. Ayniqsa Oʻzbekiston mustaqil boʻlgandan keyin donchilikga eʼtibor kuchaydi. Donchilik keyingi yillarda tuman umumiy daromadining deyarli yarmini tashkil etgan. 2013 yil 1-yanvar holatiga 14888.5 gektar yerga don ekilib, oʻrtacha hosildorlik 60,7 sentnerdan, yalpi hosil 90329.9 tonnadan iborat boʻlgan. Bunga asosiy sabab tumani don bilan taʼminlash va urugʻlik yetishtirib berishdan iboratdir.

Jomboy tumanda barcha xoʻjalik toifalarida donchilikning holati.

(2008-2012 yillar boʻyicha) 14-Jadval

Yillar	Maydon (hektar)	Oʻrtacha hosildorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)
2008	13678	53.1	79662
2009	13747	53.2	73090
2010	13683	54.6	74700
2011	14543.4	59.6	86752
2012	14888.5	60.7	90329.9

Ushbu jadval tahlilidan shuni koʻrish mumkinki, Jomboy tumanida 2013-yil 1-yanvar holatida jami 14888,5 gektar yerga don ekinlari ekilib undan 90329.9

tonna hosil olingan. Shunga ko‘ra har gektar yerdan 60,7 sentnerni tashkil etgan. Shu ko‘rsatkich 2011-yilda 14543,4 gektarni tashkil qilgan hamda 86752 tonna yoki 55,6 sentner hosil yetishtirilgan. Tumanda don ekinlari yetishtirishga jiddiy e‘tibor berilayotganligi sabab ham uning yalpi hosili oshib borish bilan birga, har gektar yerdan olinayotgan hosildorlik ham ko‘tarib bormoqda. 2008-yilda jami 13678 gektar yerga don ekilgan bo‘lsa, 2012-yilda uning maydoni 1210 gektarga yoki 109 foizga, yalpi hosil esa 17667.9 tonnaga yoki 124 foizga, hosildorlik esa 7,1 sentnerga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman tumanda jami donlar tarkibida boshqoli donlardan bug‘doy, soya, maxsar kabi boshqoli moyli ekinlar ham yetishtirilmoqda. Aynan don ekinlari tarkibida boshqoli ekinlarni ko‘rib chiqamiz.

Jomboy tumanida barcha xo‘jalik toifalarida boshqoli yekinnarni yetishtirish holati (2008-2012 yillar bo‘yicha)

15- jadval

	Yillar	Ekilgan maydon (hektar)	O‘rtacha hosildorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)
1	2008	13400	52.8	70814
2	2009	13520	55.1	71447
3	2010	13428	55.0	73840
4	2011	14327	57.8	82882.9
5	2012	14625	60.3	88231.7

Ushbu jadval tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, Jomboy tumanida 2012-yil jami don ekinlari maydonlarining 92,2 foizini boshqoli don ekinlari, shu bilan birga yetishtirilayotgan yalpi hosilning ham 97,7 foizini aynan boshqoli don

ekinlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jomboy tumanida 2008-yilda jami 13400 gektar yerga don ekinlari ekilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilda 14625 gektarni yoki 2008 yilga nisbatan 1225 gektarga yoki 109% foizga, yalpi hosil esa 17417 tonnaga yoki 125 foizga, hosildorlik esa 7,5 sentnerga yoki 114 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman tumanda boshqali ekinlar maydoni yillar davomida oshib borish barobarida undan olinadigan yalpi hosil ham, hosildorlik ham oshib bormoqda.

**Jomboy tumanida barcha xo'jalik toifalarida bug'doy yetishtirish holati
(2008-2012yillar bo'yicha)**

16-jadval

Yillar	Ekin maydon (hektar)	O'rtacha hosildorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)
2008	13007	53,0	68920
2009	13121	53,4	70040
2010	13032	55,2	71960
2011	13431	60,4	81115
2012	14125	60,2	850201

Ushbu jadval tahlilidan shuni ko'rish mumkinki tumanda 2008 yilda jami 13007hektar yerga bo'g'doy ekilgan bo'lsa,bu ko'rsatkich 2012 yilda 14125 gektarni tashkil qilib, 2008 yilga nisbatan 1118 gektarga bug'doy maydonlari ko'paygan. Ushbu davrlarda yalpi hosil ham oshib 2008 yilga nisbatan 16200 tonnani, hosildorlik esa 7,2 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2012 yilda tumanda jami bug'doy maydoni 14125 gektarni tashkil qilgan bo'lib bu jami

boshqoli don maydonlarni 96,6 foizini tashkil qilgan. Ushbu yilda jami 850201 tonna hosil olinib jami boshqoli don hosilni 96,4 foizini tashkil qilgan. Tumanda bug'doy yetishtirish yildan yilga oshib borayotgani unda har gektar yerdan olinadigan hosildorlikda ko'rish mumkin. 2012 yilda har gektar yerdan 60,2 sentner hosil olingan bo'lsa, 2011yilda bu ko'rsatkich 60,4 sentner tashkil qilgan edi.

Jomboy tumanida barcha xo'jalik toifalarida moyli va boshqa don yeknlari yetishtirish holati (2013 yil 1-yanvar holatida) 17-jadval

Ekin turlari.	Ekilgan maydon (hektar)	Yig'ib olingan maydon (hektar)	Hosildorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)
Arpa	500	500	35,4	1767,9
Makkajo'kori	199,5	199,5	59,3	1003,5
Soya	15	15	9,0	14
Maxsar	2000	2000	4,5	900
Boshqa moyli ekinlar	14	14	8,0	11

Ushbu jadval tahlilidan shuni ko'rish mumkin, Jomboy tumanida don ekinlari tarkibida bo'g'doy bilan birgalikda arpa, makkajo'kori, soya, maxsar kabi boshqa donli ekinlar ham ekilib undan hosil olinmoqda. Shu bilan birga boshqa moyli ekinlar yani zig'ir, kunjut, raps kabi o'simliklar ham yetishtirilmoqda. Maydon jihatida tumanda mashar 2000 gektarga, yani ko'proq lalimi yerlarga ekiladi. Shunday bo'lsada yuqori hosil olinmaydi. Bahorning seryog'in bo'lishi hamshu ekin turidan olinadigan hosilga tasir qiladi. Tumanda 2012yilda jami 2000 gektarga yerga mashar ekilib undan 900 tonna hosil olingan va gektaridan 4,5 sentner hosilni tashkil qilgan xolos. Tumanda arpa ushbu yilda 500 gektar yerga

ekilib undan 1767,9 tonna hosil olingan, oʻrtacha har gektar yerdan 35,4 sentnerni tashkil qilgan. Makkajoʻhori ekilgan maydonlar 199,5 gektar boʻlib, 1003,5 tonna hosil olingan va oʻrtacha har bir gektar yerdan 50,3 sentnerdan hosildorlikka erishildi. Tumanda soya ekilgan maydonlar uncha koʻp boʻlmasada, ushbu ekin turini tuman hududlarida ekib koʻrilmoqda. Tumanda soya jami 15 gektar yerga ekilib undan 14 tonna hosil olindi va gektaridan 9.0 sentnerdan hosildorlikka erishildi. Shu bilan birga yuqorida aytib oʻtilganidek boshqa moyli ekinlar ham ekilgan. Tumanda jami 14 gektar yerga moyli ekinlar ekilib 11 tonna hosil olingan va gektaridan 8.0 sentnerdan hosil yigʻib olingan. Umuman olganda tuman hududlarida yetishtirilayotgan bu donli ekinlar, asosan fermer xoʻjaliklarda ham yetishtirilib kelinmoqda va qariyb 98-99 foiz ekinlar fermer xoʻjaliklar hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Bundan maʼlum boʻldiki, tumanda yillar mobaynida don maydoni oʻzgarishi bilan hosildorlik ham oʻzgarib turgan. Jomboy tumani urugʻlik don yetishtirib berish boʻyicha yetakchilik qiladi. Tumanda gʻalla ekiladigan yerlar yil sayin ortib bormoqda va hosildorlik ham oshib bormoqda va bugungi asosiy sababi don maydonlarining dehqon, fermer xoʻjaliklarga boʻlib berilganligidadir. 2011yilda fermer xoʻjaliklarida don mahsulotlari 12500 gektar boʻlgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2012 yilda 12925 gektarga yetdi va 425 gektar maydonga kup maydonga gʻalla ekilmoqda. Shunga nisbatan oʻrtacha hosildorlik ham yil sayin oshib bormoqda. 2011 yilda oʻrtacha har gektar yerdan 56,2 sentner hosil olingan boʻlsa, 2012 yilda esa 57,9 sentner hosil yetishtirilgan. Gʻalla va don ekinlari yetishtirishda Jomboy tumani nafaqat viloyatda balkim respublikada ham yetakchi tumanlardan hisoblanadi. Tumanda yetishtirilgan gʻalla va don mahsulotlari qayta ishlab chiqarish “Jomboy don mahsulotlari” konbinatiga yetkazib berilmoqda. Bu yerda un ishlab chiqarilib respublikamiz hududlariga, non pishirish korxonalari, qandolat sexlariga va aholi manzillariga yetkazilmoqda. Shu bilan birga tumanda un mahsulotlari asosida ishlovchi kichik korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu yerda har xil qandolat mahsulotlari sifatli qilib ishlab chiqariladi va chetga ham esport qilinmoqda. Tumanda paxta singari gʻalla ham fermer xoʻjaliklariga boʻlib berilgan. 2012yilda jami 14888,5 gektar gʻalla

maydonlarining 12925 gektari yoki 86,7 foizi fermer xo‘jaliklari ixtiyorida bo‘lgan, bo‘lsa ushbu yilga kelib jami 16881 gektar g‘alla maydonlari fermerlar ixtiyoriga o‘tdi. Donchilikda bug‘doy yetishtirish asosiy o‘rinni egallaydi. 2012 yilda tuman fermer xo‘jaliklari jami 80918 tonna bug‘doy yetishtirib, o‘rtacha har bir gektardan 62,6 sentnerga hosil olishgan. Agar fermerlarni davlatga toshiradigan bug‘doy sentneri ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu yerda fermerlarga katta miqdorda bug‘doy qolayotganini ko‘rishimiz mumkin. Hozirda fermerlar o‘rta hisobda 33 s/ga g‘alla davlatga topshirmoqda, Qolgan donlar fermerlar ixtiyoriga o‘tmoqda. Buning oqibatida fermerlarning moliyaviy ahvoli yaxshilanib ish unimdorligi oshmoqda va ularda ishlovchi ishchilarga ham katta yordam bo‘layotganini ko‘rishimiz mumkin.

**Jomboy tumani fermer xo‘jaliklarda donchilikning holati
(2008-2012 iylar bo‘yicha)**

18- Jadval

№	Yillar	Ekilgan maydoni (hektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosildorlik (sentner)
1	2008	10977	590318	53.7
2	2009	11394	60446.0	53.0
3	2010	11648	62998.0	54,9
4	2011	12500	72739.0	58.2
5	2012	12925	74835.0	57.9

Ushbu jadvalda shuni ko‘rish mumkinki, tuman fermer xo‘jaliklarda don hosildorligi turlicha bo‘lganligi ko‘zatiladi. Ilg‘or fermer xo‘jaliklari 2012 yilda gektaridan 60-70 sentnergacha hosil olgan bo‘lsa, ayrim fermer xo‘jaliklarda bu ko‘rsatkich 50-55 sentnerdan oshmagan. Fermer xo‘jaliklarda 2008 yilga nisbatan 2012 yilda don maydonlari 2 ming gektarga ko‘paygan bo‘lsa, hosildorlik qariyb 4-5 sentnerga oshgan. 2011- yilda jami yer maydonining 12500 gektarga g‘alla ekilib ortacha 58,2 sentner hosil yetishtirilgan. Bu eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. 2012 yilda bu ko‘rsatkich 1,5-2 sentnergakam bo‘lgan. Albatta fermer

xo‘jaliklarda g‘alla va don ekinlari hosildorligini oshirish imkoniyatlari ko‘p. Buning uchun g‘alla maydonlarini yerta ko‘z tushmasdan ekib olish talab etiladi. Agar u qish mobaynidan keyinga qoladigan bo‘lsa, uning unimdorligi va

Jomboy tumanida barchaxo‘jalik toifalarida don va dukkakli don yekinlari yetishtirish holati

(2012-yil 1- yanvar holati) 19- jadval

Yekin turlari	Barcha toifa xo‘jaliklari			Fermar xo‘jaliklari			Dehqon xo‘jaliklari			Qishloq xo‘jaligi korxonalari		
	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)
Don va dukkakli don yekinlari	14543.4	59.6	86752.4	12500.0	58.2	72739.0	1555.0	75.6	11760	488.4	46.1	2253.4
Boshqoli don yekinlari	14327.0	59.6	85462.9	12500	58.2	72739.0	1380.0	76	10488	447.0	50.0	2235
Bug‘doy	13431.0	62.3	83695	11810.0	61.1	72126	1190.0	79.1	9412	431.0	50.0	2157.0
Arpa	896	19.7	1767.9	690.0	14.8	1020.0	110.0	62.0	682	16.0	49.3	78.9
Makkajo‘xori	138	72.7	1003.5	-	-	-	133.0	75.0	998	5.0	11	5.5
Dukakli don yekinlari	48.0	58.3	280	-	-	-	42.0	65.2	274	6.0	10	6.0
Moyli yekinlar	139	51.5	719	-	-	-	90	76.5	689	49	6.1	30

hosildorligi past bo'ladi. Shu bilan birgalikda g'alla maydonlari ichida begona o'tlarni o'z vaqtida tozalash talab etiladi. Chunonchi, bu o'tlar maysa unib chiqishiga juda katta ahamiyat berishi va uni o'rnini egallab olishi mumkin. Shu bilan birgalikda mineral va organik o'g'itlarni o'z vaqtida berish talab qilinadi. Bu tadbirlar o'z vaqtida olib borilsa undan mo'l-ko'l hosil olish zaminini yaratadi.

Bog'dorchilik va uzumchilik. Hozirgi vaqtda barcha tumanlarda tabiiy boyliklardan moddiy va mehnat vositalaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda sarflanadigan harajatlarini kamaytirish, har bir tumanning iqtisodiy ahvolini mustahkamlashga katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ho'l meva va rezavor meva mahsulotlari bilan ta'minlash hamda uzum etishtirishni ko'paytirish zarur, Chunki bu mahsulotlar kishilarning ovqatlanishida, mehnat qobiliyatini mustahkamlashga muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun kiyingi yillarda ho'l mevalarga bolgan talab oshib bormoqda. Bu esa bog'larning maydonini kengaytirib uni yaxshilash hamda hosildorligining oshirilishini talab etadi. Jomboy tumaning iqtisodiy geografik sharoiti, bu yerda qadimdan bog'dorchilik va uzumchilik rivojlanishiga qulayligini bildiradi. Aholining tarixan tarkib topgan mehnat masalasi ham shuni taqozo etadi. Tuman ham shunday hududlardan biri bo'lib, tok va mevali daraxtlar ko'pdan beri parvarish qilinib kelinmoqda. Tuman hududida urug'li mevalardan olma nok donakli mevalardan shaftoli, gilos, olho'ri va olchadan iborat. Tumanda 2687 gektar uzumzor mavjud mavjud bo'lib undan har yili mo'l hosil olib kelinmoqda. Uzunning oq kishmish, tayfi, husayn, kabi navlari yetishtirilib, yoz va kuzdan to'laligicha is'temol qilinadi. Keying yillar istemolbob va vinobob navlari yetishtirish yanada yuksalib, yetishtirilayotgan uzum turlari chetga ham eksport qilinmoqda. Bu yanada uzumning mayizbob navlaridan kishmish, nimrang, toyfi, muskat, sapervanikabi navlari ko'plab yetishtiriladi. Tumanda keying yillarda uzum yetishtirishning ko'rsatkichlari va xo'jaliklardagi ahamiyatini o'rganib chiqish muhim o'ringa yegadir. Jomboy tumani aholisi azaldan uzum yetishtirishga katta ye'tibor berib kelgan. Aholi tomorqalarida yetishtirilgan uzumlar asta sekin xo'jaliklarda ham amalga

oshirilgan. Shu sabab o'tgan yillar mobaynida uzum yetishtirishda aholi katta tajribalarga yega bo'lib, yendilikda undan mo'l-ko'l hosil olib kelmoqdaki, bu o'z navbatida aholi turmush sharoitlarini yaxshilashga, uning daromad manbaini yaxshilashga, qayta ishlash sanoat tarmoqlarini kupaytirishga sharoit yaratib kelinmoqda. Tuman xo'jaliklarida uzum yetishtirishda ixtisoslashtirish ilmiy asosda olib boriladi bu orqali uzumni yetishtirishda ilg'or texnika usullaridan to'g'ri foydalanish asosida uni parvarishlash yerdan to'g'ri va unumli foydalanishga olib keladi va yuqori sifatli mo'l hosil yetishtirish imkonini yaratiladi. Bundan tashqari tumanida uzumchilikni iqtisodiy foydali soxaga aylantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Buning uchun xo'jaliklarda uzumlarni yetishtirishni kengaytirish toklarni parvarishlashni yaxshilash, mexanizatsiyadan keng foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosda to'g'ri tashkil yetish, aholining moddiy manfaatlarini yaxshilash talab yetiladi. Ammo har yili xo'jaliklarda o'tkazilgan ko'chatlar o'z vaqtida parvarish qilinmasligi natijasida qurib qoladi. Shuning uchun parvarishlashni yaxshilash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishni kuchaytirish lozim. Tumanda uzumzorlarni kengaytirish uchun irrigatsiya tarmoqlari yaxshi taraqqiy yetgan, toshloq yerlar mavjud. Bunday maydonlarni o'zlashtirish uzumzorlarni ana shu yerlarni o'zlashtirish hisobiga kengaytirish mumkin. Jomboy tumani bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlari bilan ya'ni turli tuman mevalari bilan Samarqand shahri aholisini oz miqdorda bo'lsa ham ta'minlab turadi. Bog'dorchilikda asosan olma ko'p miqdorni tashkil etadi. Olmaning besh yilduz, qoldin , karlik va zilyonka navlaridan mo'l-ko'l hosil olinadi. Tumanda 2011 yil ma'lumoti bo'yicha 2656,6 gektar mevazorlar mavjud bo'lib shundan 2598 gektari hosil beruvchi bog'lar hisoblanadi. Ulardan 25110,4 tonna meva yetishtiriladi va o'rta har gektardan 94,5 sentner hosil yig'ishtirib olindi. Tokzorlar maydoniyil sayin oshib bormoqda. Yuqorida aytilgandek 2011 yilda tumanda 432 gektar uzumzorlar mavjud bo'lib, shundan 400 gektaridan hosil yig'ishtirilib olingan. Ulardan o'tgan yili 3210 tonna uzum hosili terib olindi va gektaridan 80,2 sentnerga teng bo'ldi. Tumanda yetishtirilgan meva va uzum mahsulotlarini qaytaishlash "Lazzat meva"

Jomboy tumani barcha xo‘jalik toifalarida meva va uzum yetishtirish holati

(2012-yil 1-yanvar holati)

20-jadval

Yekin turi	Barcha xo‘jalik toifalari			Fermer xo‘jaliklari			Dehqon xo‘jaliklari.			Qishloq xo‘jalik korxonalri		
	Yer maydoni (gektar)	Hosil- dorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)	Yer maydoni (gektar)	Hosil- dorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)	Yer maydoni (gektar)	Hosil- dorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)	Yer maydoni (gektar)	Hosil- dorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)
Meva	2656.6	94.5	25110.4	1428	93.8	13394	1188	98.6	11716	40.6	-	-
Uzum	432	74.3	3210	202	48.1	972	202	110.8	2238	28	-	-
2011-yil 1-yanvar holati												
Meva	2664	88.9	2367.3	1428	85.1	12150	1195	95.8	11451	41	17.6	7.2
uzum	459	50.3	2308	202	91.6	185	202	105	2122	55	1.8	1.0

korxonasida Chexiya respublikasi texnologiyalari asosida ishlab chiqarilmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tuman va shahar dukonlariga hamda qshshni viloyatlarga joʻnatilmoqda. Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, Jomboy tumanida 2011-2012 yillarda meva va uzum etishtirish holati keltirilgan. Tumanda 2011-yilda jami 2664 gektar erga meva va 455 gektar erga uzum etishtirilgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2012-yilda meva 2656,6 gektar, uzum esa 432 gektar maydonni tashkil qilgan. Meva holatini ushbu yillarda koʻrib chiqadigan boʻlsak, 2011-yilda jami 23673 tonna hosil olinib gektaridan 88,9 sentnerni tashkil qilgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2012-yilda 25110,4 tonna yoki 94,5 sentnerni tashkil etgan. 2011-yilga nisbatan meva yetishtirish 106 foyizga, hosildorlik yesa 106,0 foyizga oshgan. Tumanda 2012-yilda yetishtirilgan jami mevaning 53,3 foyizi fermer xoʻjaliklari va qolgan 46,7foyzisi yesa dehqon xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri keladi. Har gektar yerdan oilnadigan hosildorlik dehqon xoʻjaliklarida 98,6 sentnerni, fermer xoʻjaliklarida esa 93,8 sentnerni tashkil qilgan. Tumanda yetishtirilgan uzumning 30,3 foizi fermer xoʻjaliklariga va qolgan 69,7 foizi yesa dehqon xoʻjaliklari hissaiga toʻgʻri keladi. Hosildorlikesa dehqon xoʻjaliklarida 110,8 sentnerni, fermer xoʻjaliklarida 48,1 sentnerni tashkil qilgan. Tuman fermer xoʻjaliklarida 2011-yilga nisbatan 2012-yilga meva hosildorlik 8,7 sentnerga oshgan boʻlsa , uzum yetishtirish yesa 43,5 sentnerga tushib ketgan. Bu holat dehqon xoʻjaliklarda 3-5sentnerga oshganligini koʻrishimiz mumkin.

**Jomboy tumani xoʻjalik tarmoqlarida 2012 yilda mevali daraxtlar
koʻchatlari taʼminoti 21-jadval**

Xoʻjaliklar nomi	Taʼmirla talab bogʻlar (ga)	Kerak boʻladigan koʻchat soni (ming dona)	Shu jumladan (ming dona)		Viloyat hududida taʼminlanadigan koʻchatlar (ming dona)	Jumladan (ming dona)	
			Urugʻlik meva	Donakli meva		Urugʻlik meva	Danakli meva

Qishloq xo'jalik korxonalarida	2	0,5	0,2	0,3	0,5	0,2	0,3
Fermer xo'jaliklarida	26	6,4	3,6	2,8	6,4	3,6	2,8
Dehqon va aholi tomarchilarida	21	23,1	11,55	11,55	23,1	11,5	11,5
Tuman bo'yicha jami	49	79	15,35	14,35	79	15,35	14,38

Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki Jamboy tumanida 2012 yilda jami 49 gektar ta'mir talab bog'lar mavjud bo'lib, b u jami bog' maydonlarning 2,3 foizini tashkil qiladi. Ta'mirtalab bog'larning 53 foizi yoki 26 gektari fermer xo'jaliklarida bo'lib, ularga 6,4 ming dona ko'chat kerak bo'ladi. Bu har gektar yerga o'rtacha 246 donadan ko'chat to'g'ri keladi. Kerak bo'ladigan ko'chatlarning 3,6 ming donasi urug'lik mevalar ya'ni olma, nok, behi kabi mevali daraxtlardan, 2,8 ming donasi danakli mevalar qaroli (sliva), gilos, shaftoli, o'rin kabi mevali ko'chatlar yekish uchun kerak bo'lgan, shundan 0,2 ming donasi urug'lik va 0,3 ming donasi danakli meva ko'chatlarini tashkil qilgan. Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki tumanda har xil sharoitda, ya'ni kuchli shamol natijasida, ko'p hosil berishda kasallanib qolganda va boshqa holatlarda ko'chatlar bog'larda kamayib qoladi. Shuning uchun ularni o'rnini yangi ko'chatlar bilan to'ldirib berishni talab qiladi. Tumanda keyingi yillarda yong'oqli meva ko'chatlarini ko'paytirishga ham e'tibor berilmoqda. Yong'oqli navlardan yong'oq va bodom yetishtirish uchun serhosil ko'chat navlarini olib kelinib xo'jalik yerlariga yekilmoqda. Ayniqsa shaftoli, maydonlari orasiga yong'oq yekilib, shaftoli 4-5 yil ichida hosil berishdan qolganda uning o'rnida yong'oqlar kattarib hosil yoshiga yetib boradi va shaftoli daraxtlari olib tashlanib, o'rnida yong'oq daraxtlari qoladi. Aynan yong'oq daraxtlari ko'p yil hosil berib boradi. Bu xo'jalik yerlaridan unumli foydalanishga olib keladi. Viloyatning barcha hududlarida

intensiv bog'lar yaratishga jiddiy ye'tibor berilmoqda. Shu jumladan Jomboy tumanida ham intensiv bog'lar tashkil qilish, tez hosil beradigan, olma, nok, shaftoli, o'rikning yangi navlarini yekishga ye'tibor qaratilmoqda. Bu navlarning afzalligi shundaki bu bog'lar tez hosilga kiradi. Ikki yilda nishona bera boshlagan daraxtlari 3-4 yilda gektaridan 70-90 tonnagacha hosil beradi. Shunday ko'chatlarni tuman hududlarida ham ishlab ko'rish ishlari olib borilmoqda. Hozirda yangi yaratilgan intensiv bog'lar 60 gektarni tashkil qilmoqda. Shundan bog'larni ko'proq tashkil qilish uchun chet yel bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga, intensiv bog'lar maydonlarini ko'paytirishga ye'tibor qaratish lozimdir. Izlanish olib borilayotgan hududa bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun ko'plab tabiiy iqtisodiy sharoitlarga yegabo'lib, ularni qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan, aholini uzum va turli mevalar bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga yegadir. Tumanda bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish aholini meva va uzumga bo'lgan talabga qarab, ishlab chiqarish zavodlari imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilashtalab yetiladi. Bundan tashqari bog'dorchilik, uzumchilik xo'jaliklarida agratexnik qoidalar asosida toklar, daraxtlarni rivojlantirishni yaxshilash, mexanizmlaridan keng foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosda to'g'ri tashkil yetish aholini modiy manfaatlarini oshirish talab yetiladi. Ammo har yili xo'jaliklarda yekilgan ko'chatlar o'z vaqtida parvarish qilinmasa, kasallanish va qurib qolishi mumkin. Tadqiqot natijasida ma'lum bo'ldiki, bog' va takzorlarni kengaytirish uchun irrigatsiya tarmoqlari yaxshi taraqqiy yetgan, tashlama yerlar mavjud. Bunday maydonlarni o'zlashtirish va bu yerlarda intensive bog' va uzumzorlar tashkil qilib, tomchilab sug'orishni joriy yetish kerak.

Sabzavotchilik. Tumanda sabzavotchilik muhim tarmoqlardan hisoblanadi. Bugungi kunda sabzavot maydonlari asta sekinlik bilan fermerlar ixtiyoriga o'tib bormoqda. Tumanda sabzavotekinlari, g'alla maydonlarining bir qismi bilan almashlab ekiladi. Kechki kartoshka, sabzi va boshqa sabzavotlar don ekinlari yetishtirilib olingandan keyin, kelgusi yo'l boshqa ekinlarga ajratilgan yerlarda ikkinchi ekin sifatida ekiladi. 2012yilda tumanda jami 2539 gektar maydonga sabzavotekinlari ekilib 121789,3 tonna hosil olindi va o'rtacha har gektar yerdan

479,7 sentnerni tashkil qiladi. Ekilgan sabzavot mahsulotlarning asosiy qismini pamiyor tashkil qiladi. 2012yilda 1228 gektar maydonga pamiyor ekilib 46271 tonna hosil olindi va hosildorlik 376,8 sentnerni tashkil etdi. Qolgan 746 gektar maydonga karam, loviya, baqilajon, bodring, shalgʻom va boshqa mahsulotlar ekilgan. 2011yilda fermer xoʻjaliklarda jami 762 gektar yerga sabzavot ekinlari ekilib 45502 tonna hosil yetishtirildi. Oʻrtacha har gektar yerdan 597 sentner hosil olindi. Bu albatta fermer xoʻjaliklarda sabzavot mahsulotlarni hosildorligi oshib borayotganligini koʻrsatadi. Shu bilan birgalikda fermer xoʻjaliklarda 172,3 gektar maydonga poliz ekinlari ham ekilib 4920 tonna hosil yetishtirilib olinadi. Tumanda ayni yillarda kartoshka yetishtirishga katta eʼtibor berilmoqda. 2012 yili tumanda 600 gektar maydonga kartoshka ekilib 25582,5 tonna mahsulot yetishtirilgan va oʻrta har gektar yerdan 426,4 sentnerga yaqin hosil olingan. Yetishtirilgan kartoshkani 581 gektari dehqon xoʻjaliklar hissasiga toʻgʻri kelib, jami 21898 tonna hosil oshib, gektaridan 376,9 sentnerni tashkil qilgan. Fermer xoʻjaliklarida jami 19 gektar maydonda kartoshka ekilib 3684,5 tonna kartoshka yetishtiriladi. Oʻrtacha hosildorlik 1939,2 sentnerni tashkil qildi. Yetishtirilgan sabzavot mahsulotlari shahar aholisiga yetkazib berilmoqda. Shu bilan birga kartoshkani Toshkent Xorazm, Buxora viloyatlariga va Qoraqalpogʻiston respublikasiga ham yetkazib berilmoqda. Tumanda paxta maydonlarining asta-sekinlik bilan qisqarishi sabab sabzavot, kartoshka va poliz maydonlari kupayib bormoqda. Bu oʻz navbatida tumanda ushbu mahsulotlarni yetishtirish va ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklari va dehqon xoʻjaliklari moʻl hosil olish barobarida shahar bozorlari va chetga chiqarish imkoniyatlari oshib bormoqda.

**Jomboy tumani barcha xo‘jalik toifalarida sabzavot, kartoshka va poliz
mahsulotlari yetishtirish holati**

(2013-yil 1-yanvar holati) 22-Jadval

	Yekin turlari	Yekilgan maydon (gektar)	Hosildorlik (sentner)	Yalpi hosil (tonna)
1.	Kartoshka	948	320.6	31887
2.	Oziqbop poliz	517	195.7	10117
3.	Sabzavotlar oziq yerlarda shundan:	1977	350.7	90309
4.	Pamidor	1228	376.8	46271
5.	Bodring	123	235	2890
6.	Sabzi	145	462,6	22428
7.	No‘sh piyoz	166	358.7	5955
8.	Sarimsoq	42	196	823
9.	Har xil karam	45	220	990
10.	Boshqa sabzavotlar	228	273.1	10951

Ushbu jadvaldan ko‘rinibturibdiki tumanda jami sabzavot ekinlari 62 foiziga pomidor, 8,4 foiziga piyoz, 7,3 foiziga sabzi, 6,2 foiziga bodring, 2,3 foiziga karam, 2,1 foiziga sarimsoq va qolgan 11,5 foiziga yesa boshqa sabzavotlar ekilgan. Tumanda 2011 yilga nisbatan kartoshka va poliz yeknlari maydonlari bir muncha oshib, hosildorlik ham ko‘tarilib bormoqda. Bunga asosan tuman xo‘jaliklari o‘rni oshib bormoqda. tumanda aholi tamonidan ham ushbu mahsulotlarni yetishtirishg katta yetibor berilmoqda.

Jomboy tumani fermer xo‘jaliklarda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari.

(2008-2011y yillar holati). 23-jadval

Ekinlar nomi	2008y			2009y			2010y			2011y		
	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)	Yer maydoni (gektar)	Yalpi hosil (tonna)	Hosil-dorlik (sentner)
paxta	7960	19953	24,7	7946	17450	25,4	7496	16940	23,1	7533	17280	22,3
Donli ekinlar shu jumladan	10460	57860	28,9	10820	59840	30,0	11648	62998	49,2	125000	72739	54,1
Bug‘doy	9377	56117	30,5	9470	57365	31,0	10460	61508	49,2	11810	72126	54,2
kartoshka	22	627	72,6	23	660	108,7	25	727	151	30	1590	145
sabzavot	998	46218	107,1	980	47120	155,8	964	45502	2384	762	45951	313
sholi	15	194	12,9	5	64	12,8	2	10	5	–	–	–
poliz	350	7350,1	32,9	346	7617	55	331	7048.2	23	114	4590	50
uzum	127	1238	97,5	127	1793	102	202	1850	9.2	202	972.0	48.1
mevalar	142.8	7604	92.4	1428	7823	95	1273	12150	35.4	1314	13394	101.9

Chorvachilik va uning tarmoqlari. Xududlarda chorvachilikni rivojlantirish va uni tashkil etish, avvalombor xududning tabiiy sharoiti, iqtisodiy va xududiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ilmiy asosda tashkil qilish va rivojlantirish muhim ekanligini ko'rsatadi. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ya'nada kupaytirish, mollar va parandalar mahsuldorligini oshirishni ta'minlash, sigirlarni sut mahsuldorligini oshirishni ta'minlash, mol gushtini yetishtirishni kupaytirish va mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish hamda gusht uchun qoramoolar va parandalar sonini, mahsuldorligini kutarishga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga sog'in sigirlarni mahsuldorligini ya'nada kupaytirishga, har bir sigirdan olinadigan sutning miqdorini oshirishga, undan olinadigan nasl zotlariga ham e'tibor berish kerak. Buning uchun chorva fermalarida yem-xashak bazasini yaratish, har bir chorva moli uchun yetarli darajada yer maydonlari bilan ta'minlash muhimdir. Anashularga asoslani Jomboy tumani qishloq xo'jaligida dehqonchilik bilan birga chorvachilik ham asosiy tarmoqlardan biri sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Tumanda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari tashkil qilinmoqda. Keyingi yillarda tuman charvachilik tarmoqlarida qoramolchilik, qo'y-echkichilik bilan birga cho'chqachilik, yilqichilik, parandachilik, baliqchilik, asalarichilik, pillachilik kabi tarmoqlar ham rivojlanib bormoqda. Bu o'z navbatida aholini go'sht, sut, tuxum, baliq, asal kabi mahsulotlar bilan ta'minlab qolmasdan, sanoatni va qayta ishlash korxonalarni xom ashyo bilan ta'minlab kelmoqda.

Qoramolchilik. Bu tarmoq mahsulotlarni yetishtirishni yaanada ko'paytirish mollar va parrandalar mahsuldorligini oshirishni ta'minlash, sigirlarni mahsuldorligini oshirish sig'imga boqish muddatini qisqartirish, yil bo'yi mol go'shti yetishtirishni ko'paytirish uchun qoramolchilik va parrandachilikni rivojlantirishga ayniqsa keyingi yillarda e'tibor kuchaygan. Tumanda qora molar soni hozirgi kunda ko'payib bormoqda. 2013 yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanda 85930 bosh yirik shoxli qoramollar mavjud bo'lib, shundan 33892 boshni yoki 39,4 foizini sigirlar tashkil qilmoqda. Tumanda ushbu yilda jami 5260,8 tonna go'sht va 55211,8 tonna sut yetishtirilgan. O'rtacha har bir sigirdan 1629

kilogramm sut sog'ib olingan. Tumanda asosan go'sht uchun qoramollar boqilmoqda. Chunki tumanda go'shtni qayta ishlab undan har xil mahsulotlar, ya'ni go'sht va go'sht mahsulotlari ishlab chiqaruvchi "Baxt" xususiy korxonasi faoliyat yuritmoqda. Mol va qo'y go'shtlarini qayta ishlab undan turli xildagi kolbasa va sasiska, yahna, dudlangan go'sht va pishloq, qaymoq mahsulotlari ishlab chiqarmoqda.

Qo'y va echkichilik. Jomboy tumanida chorvachilik tarmoqlaridan biri bo'lgan qo'ychilik ham yetakchi tarmoqlardan bo'lib hisoblanadi. Qo'ychilik asosan tog' oldi zonalarida jaydari qo'ylar boqiladi. Bu qo'ylar asosan go'sht va jun yetishtirish uchun boqiladi. Tumanda 2012 yilda jami 88678 bosh qo'y va echkilar mavjud bo'lib, bu ko'rsatgich 2011yilga nisbatan 9834 boshga ko'pdir. Tumanda jami 2012 yilda 19 ta chorvachilik iqtisodlashgan fermerlar bo'lib shundan qoramolchilikda 8 ta qo'ychilikda 10ta va parrandachilikda 1ta fermer xo'jaliklari mavjud. Ularning jami yer maydoni 498,2 gektar bo'lib o'rtacha har bir fermerga 54,2 gektar to'g'ri kelmoqda. Tumanda 2012 yilda jami qora mollar soni 85930 bosh bo'lib, shundan 2159 boshi yoki 2,4 foizi fermerlarda qolgan 83587 boshi yoki 87,6 dehqon xo'jaliklarida bo'lsa, sigirlar 33892 bosh bo'lib shundan 657 tasi fermerlar qoramollaridir. Shu bilan birgalikda tumandagi 88678 bosh qo'y va echkilarning 2110 boshi fermer xo'jaliklar tarkibidadir. Tumandagi jami 462147 bosh parrandalarning 34660 boshi fermerlar ixtiyoridadir. Tumanda 2012 yilda chorvachilik fermerlar tomonidan 95,1 tonna go'sht va 1305,6 tonna sut va 4470 ming dona tuxum mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Jomboy tumanida barcha xo‘jalik toifalarda charvochilik turlari va ularning soni (bosh hisobida 2009-2012 yillar) 24- jadval

Charvochilik turlari	2009	2010	2011	2012	2012 yil 2009 yilga nisbatan % hisobida
Yirik shoxli qoramollar (bosh) Shundan:	70870	77524	79878	85930	121,2
Sigirlar (bosh)	26107	32186	32837	33892	149
Qo‘y va echkilar (bosh)	56951	69672	78884	88678	155,7
Parranda (bosh)	241711	277450	353667	462147	191,2
Otlar (bosh)	448	523	543	575	128,3
Chuchqalar (bosh)	601	1185	1842	1006	167,4
Asalari qutisi (dona)	420	661	848	636	151,4

Ushbu jadval tahlildan shuni ko‘rish mumkinki, tumanda 2009 yilda qoramollar soni 70870 boshni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2012 yilda 85930 boshni yoki 15060 boshga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Mavjud qoramollarning 2009 yilda 36,8 foizi yoki 26107 boshi sigirlarni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2012 yilda 39,4 fozni yoki 33892 boshni tashkil qilgan. Sigirlar soni 2012 yilda 2009 yilga nisbatan 7785 boshga kupayganligini ko‘rishishimiz mumkin. Tumanda qo‘y va echkilar soni ham oshib bormoqda. 2009 yilda tumanda jami 56951 bosh qo‘y va echkilar bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2012 yilda 88678 boshni yoki 31724 boga yoki 156 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Tumanda cho‘chqachilik ham mavjud bo‘lib uning soni yillar davomida o‘zgarib to‘rgan. 2009 yilda jami 601 bosh cho‘chqa mavjud bo‘lgan bo‘lsa, uning

soni 2012 yilda 1006 boshni yoki 167,4 foizga oʻsganligini koʻrishimiz mumkin. Tumanda yilqilar soni oshib bormoqda. 2009 yilda ular 448 bosh boʻlgan boʻlsa 2012 yilda esa 575 boshga yetgan yoki 127 boshga kupaygan.

Jomboy tumanida barcha xoʻjalik toifalarda charvochilik mahsulotlari ishlab chiqarish (bosh hisobida 2008-2012 yillar)

25- jadval

Mahsulotlar turi	2008	2009	2010	2011	2012	2012 yil 2008 yilga nisbatan % hisobida
Goʻsht (tonna)	3636	3726	4710	4963,2	5260,8	145
Sut (tonna)	36919	37830	43487	51020	55211,8	149
Tuxum (ming dona)	18520	23555	32546	35395	44676,8	241
Jun (sentner)	102	119	200	184	203	199
Asal (tonna)	3,1	4,2	6,9	7,8	10,6	342
Baliq (tonna)	-	-	-	17,1	52,0	304

Parandachilik. Tumanda parandachilik yetti xazinaning biri sifatida qaralib uning sonini kupaytirishga katta eʼtibor berilmoqda. Parandachilik ham xalq xoʻjaligida katta ahamiyatga ega boʻlgan chorvachilik tarmoqlarida biri boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun ham parranda goʻshtini boshqa turlarini yetishtirish, yangi sohalarini kupaytirish orqali parrandachilik mahsulotlarini mahsuldorligini oshirishga eʼtibor berilmoqda. Mahalliy aholining ehtiyojini qondiradi, tovuqlarni oʻz vaqtida don suv va uchastkalarda boy oziqlar bilan taʼminlash, yangi zootexnika fani yutuqlarini puxata oʻrganish, amalga tadbiq etishga katta eʼtibor berilmoqda.

Tuman statistika boshqarmasining ma'lumotiga ko'ra 2013 yil 1- yanvarda jami 462147 bosh parandalar mavjud bo'lib, shundan 34660 boshi yoki 7,5 foizi fermer xo'jaliklarida va 397610 ming boshi yoki 92,5 foizi dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Tumanda ushbu yilda jami 44676,8 ming dona tuxum yetishtirilgan bo'lib shunning 4470,0 ming donasi fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan. Tumanda asalarichilikka ham keyingi yillarda jiddiy e'tibor berilmoqda. Tumanda 2009 yilda jami 420 dona asalari qutilari mavjud bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 636 donaga yoki 216 qutigi ko'paygan.

Jomboy tumani dehqon xo'jaliklarida charvochilik turlari va ularning soni.

(bosh hisobida 2008-2012 yillar)

26- jadval

Charvochilik turlari	2008	2009	2010	2011	2012	2012 yil 2008 yilga nisbatan % hisobida
Yirik shoxli qoramollar (bosh) Shundan:	58930	70101	75728	78119	83587	142
Sigirlar (bosh)	24625	25900	31651	32317	33182	135
Qo'y va echkilar (bosh)	54855	56780	68383	77591	86562	158
Parranda (bosh)	201116	215211	250167	296176	397610	198
Otlar (bosh)	455	420	464	487	505	111
Chuchqalar (bosh)	515	378	381	390	446	87
Asalari qutisi (dona)	350	551	441	494	481	137

Pillachilik. Halqimiz pillachilik bilan uzoq yillardan beri shug'ullanib kelayotganligi ma'lum. Pillachilik qishloq xo'jaligining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib asosan xom ashyo bilan ta'minlaydi. Pillachilik sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida paxtachilikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida vujudga keldi va shu tariqa rivojlanib bormoqda. Pillachilikning paxtachilik bilan shunday bog'langanligi avvalo tabiiy, iqtisodiy sharoitlar sababdir. Paxta dalalari sug'orish kanallari va yo'llarning atrof-tevaragidagi baland tut daraxtlari ihota daraxtlari vazifalarini o'taydi. Ular sizot suvlarini pasga tushuradi, dalalarni garimsellardan saqlaydi. Atrofida tut daraxatlari o'tkazilgan 10-12 gektar maydondan qo'shimcha ravishda paxta hosil olish mumkin, ekanligi tajribada isbotlangan. Tut barglari pilla uchun muhim oziqadir. Shunga muvofiq pilla ham paxta singari tumanning eng asosiy boyliklardan biri hisoblanadi. Tumanda 2011 yilda jami 276,1 tonna pilla olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 266,3 tonnani tashkil qilgan. 2011 yilda yetishtirilgan pillaning 264 tonnasi, 2012 yilda esa 263 tonnasi fermer xo'jaliklari hissasiga tqg'ri kelgan. Pillachilik Jomboy tumani chorvachilik tarmoqlari orasida ikkinchi o'rinda egallaydi. Tuman iqtisodiyotini oshib bormoqda.

Jomboy tumani fermer xo'jaligida chorvachilik turlari va uning soni (bosh hisobida 2008-2012 yillar) 27-Jadval

Charvachilik turlari	2008	2009	2010	2011	2012	2012 yil 2008yilga nisbatan % hisobida
Yirik shoxli qoramollar (bosh) Shundan:	560	615	1286	1600	2159	385,5
Sigirlar (bosh)	152	162	406	470	657	438
Qo'y va echkilar (bosh)	138	171	1129	1188	2110	153
Parranda (bosh)	5000	5620	9785	28900	34660	693
Otlar (bosh)	25	26	51	52	66	264

Asalari qutisi (dona)	70	110	180	278	298	
Gusht tirik vaznda (tonna)	16	4	51	57	95,1	
Sut (tonna)	49	43	657	893	1305,6	
Tuxum (ming dona)	-	-	1148	1950	4470	
Jun (sentner)	1	1	0,5	3	5	
Baliq (tonna)	-	-	-	17,1	52	
Asal (tonna)	1,1	1,2	2,8	3,9	4,9	
Pilla (tonna)	189	218	247	264	263	

III BOB. JOMBOY TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

3.1. Jomboy tumanida qishloq xo‘jaligi rivojlanishining muammo va istiqbollari

Respublikamizda o‘tkazilayotgan agrar sohadagi islohatlarni maqsadlardan biri qishloq xo‘jaligiga sanoatni olib kirish, asosan qayta ishlash sanoatini tashkil etish va rivojlantirishdir. Hozirgi kunda Jomboy tumani aholisining qatta qismini, ya’ni diyarli 75 foizi ni qishloq joylarda yashaydi. Bugungi kunda aynan qishloq joylarda aholini ish bilan band qilish daromad manbalari bilan ta’minlash, ishsizlik masalasini hal etish dolzarb iqtisodiy-ijtimoiy muammolardan biridir. Bu muammolarni hal etishning samarali yo‘nalishlaridan biri tadbirkorlikni rivojlantirish orqali, qayta ishlovchi sanoat korxonalarini, ayniqsa agrosanoatni rivojlantirish talab etiladi. Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlab chiqarib sifatli va bozorbob mahsulotlar ishlab chiqarish, joylardauni tashkil etish shu kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun qishloqda kichik va o‘rta korxonalar sonini ko‘paytirish xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab quvatlashdan iboratdir. Bu borada Jomboy tumanida ham talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Mavjud qishloq xo‘jalik korxonalari to‘g‘atilib uni o‘rnida fermer xo‘jaliklarni tashkil etish va rivojlantirishga qatta e’tibor berilmoqda. Yuqorida ko‘rib o‘tilgandik hozirgi kunda tumanda jami 348 ta fermer xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, ularga biriktirilgan yer maydoni 31026 gektarni tashkil qilib o‘rtacha har bir fermerga 80,9 gektar yer to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa fermerga katta imkoniyat berish va yuqori hosildorlik olish barobarida o‘z moliyaviy ahvolini yaxshilab qayta ishlash korxonalarini qo‘rish imkoniyatini beradi. Tumanda hozirgi kunda chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi fermerlar ham ko‘payib bormoqda. Lekin bu fermerlarning yer maydoni juda kam bo‘lib ularga yem-xashak bazasini yaratish va mavjud chorvachilikdan tuyuq sonini ko‘paytirishda muammolar vujudga kelmoqda. Shunday bo‘lsada keyingi yillarda tumanda barcha chorvachilik tarmoqlarida mahsuldarlik oshib bormoqda. Nafaqat

tuyoq soni balkim go'sht, sut, tuxum, baliq, asal yetishtirishga e'tibor oshib bormoqda. Shu sabab tumanda bugungi kunda bir qancha chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar kupaymoqda. Tajribalardan ma'lumki paxtachilik va g'allachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarda yer maydaoni kamida 50 gektar chorvachilikda esa 100 gektargacha bo'lgan taqdirdagina yuqori samara berishi ko'rsadmoqda. Tadbirkorlik bilan shug'illanuvchi xo'jaliklar tashkil qilingan joylarda, ular yetishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarni turlarga qarab qayta ishlovchi kichik va o'rta korxonalar hamda ular tomonidan yetishtirilgan agrosanoat mahsulotlarni ayrim tarmoqlarni shahar korxonalari yoki tumandagi korxonalar yetkazishda sifat darajasini pasayishiga olib kelmoqda va ularni daromad manbaiga salbiy ta'sir etmoqda. Jomboy tumanida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar faqat tuman markazi va ayrim markazga yaqin qishloqlarda tashkil qilgan bo'lib, boshqa qishloqlarda bunday korxonalar juda kam uchraydi. Tuman agrosanoatida Jomboy don un ishlab chiqarish kombinati, meva va uzumni qayta ishlovchi "Lazzat" korxonasi, go'sht va go'sht mahsulotlarni qayta ishlovchi "Baxt" xususiy korxonasi, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi "Amin interneyshel" fabrikasi va boshqa kichik korxonalarni ko'rish mumkin. Bu albatta tuman agrosanoatida yetishtirilgan mahsulotlarni bir qismini qayta ishlash xususiyatiga ega. Qolgan qismi xom ashyo sifatida boshqa ishlab chiqarish korxonalariga jo'natiladi. Bu esa o'z navbatida tuman aholisini ish bilan ta'minlashdagi muammolarni va yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Bizga ma'lumki tuman viloyatida sabzavot mahsulotlari yetishtirib beruvchi asosiy tumanlardan biri hisoblanadi. Buning uchun quydagilarga et'ibor qaratish lozim deb hisoblayman.

—Tumanda yangi tashkil qilingan fermer xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlarni moliyaviy jihatdan ta'minlab turish.

— Mahsulotlar sifatini uzoq vaqt saqlay oladigan sovutgich omborxonalar, meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi kichik korxonalar tashkil etish.

— Bogʻdorchilik va uzumchilik rivojlangan hududlarda turli xil sharbatlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar qurish. Shuningdek yetishtirilgan mahsulotni quritilgan holda chet elga eksport qilishni yoʻlga qoʻyish.

— Sut va sut mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalarni bevosita aholi punktlarda qurish yoki ularni geografik jihatdan joylashuvini eʼtiborga olgan holda tashkil etish.

— Oziq-ovqat, qandolatchilik va makoron mahsulotlarni tayyorlovchi kichik va oʻrta korxonalar mini sexlarni joriy etish.

Xulosa

Jomboy tumani Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqaruvchi tomonlardan biridir. Jomboy tumani juda qulay iqtisodiy geografik sharoitda joylashgan, ya'ni uning Samarqand shahriga yaqinligi, tuman hududidan davlat ahamiyatiga molik avtomobil va temir yo'l transport yo'llarining kesib o'tganligi katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Shuning uchun bu xil qulayliklardan har tomonlama foydalanishda eng avvalo tumanda ishlab chiqarishni va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish taqozo qiladi. Hozirgi kunda tumanda bu imkoniyatlardan har tomonlama oqilona foydalanish uchun qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish orqali unda yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash tizmlarni keng joriy etish, ya'ni joylarda ayniqsa qishloq joylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni kuproq qo'rish va aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash kerak. Tumanda qishloq xo'jalik tarmoqlarining tarkibi o'zgarib bormoqda, ya'ni tumanda paxta ekish to'g'atilib, uning o'rniga boshqa qishloq xo'jalik ekinlariga berilishi zahirida aynan aholi ihtiyojlari va Samarqand shahri aholisini shu mahsulotlarga bo'lgan ihtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Shu bilan birga tumanni ya'nada sanoatlashtirish, agrosanoat majmualarini kupaytirishdan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayti ishlovchi korxonalarni kuproq qo'rish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda qishloq xo'jaligidagi tub o'zgarishlardan biri bo'lgan fermerchilikni rivojlantirishda tumanda ham katta ishlar olib borildi. Jumladan past rentabelli fermer xo'jaliklari to'g'atilib ular egallab to'rgan yer maydoni istiqbolli deb topilgan fermerlarga bo'lib berilganligi sabab, bugungi kunda ular tamonidan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi va sifati oshib bormoqda. Ushbu tashkil qilingan fermer hijaliklari bugungi kunda tarmoqda qanday faoliyat yuritilmoqda, ularning yutuqlari nimalardan iborat, kamchiliklari nimada va ularni bartaraf etish chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda tahlil qilish muhimdir. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki qishloq xo'jalik tarmoqlari va ularda mavjud muammolarni o'rganish, to'plagan statistik ma'lumodlarni iqtisodiy geografik jihatdan tashkil

qilish quydagi muhim hulosalar qilish uchun asos bo'ladi. Kelajakda tuman aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash dolzarb muommolardan biri ekan buning uchun avvalombor fermerchilikni har tomonlama rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Ular nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beruvchi balkim uni qayta ishlab sifatli raqobatdosh tayyor mahsulotlar yetkazib beruvchilarga aylantirish zarur. Buning uchun quydagi talablarga amal qilish maqsadga muvoffiqdir. G'alla maydonlarini boshqa oziqbob bo'lgan beda, makkajo'xori, sholi, hamda boshqa ekinlar bilan almashlab ekishni joriy etish. Don va boshqa ekinlar hosildorligini oshirishda uni meniral va organik o'g'itlardan foydalanish sharoitida miqdor va sifat ko'rsatkichlariga e'tibor berish, tuman tabiiy sharoitiga mos keladigan ko'p hosil beruvchi navlarni yaratish. Tumanda meva va uzum yetishtirishni rivojlantirish orqali, sanoatni xom ashyo bilan, aholini meva va uzum mahsulotlari ta'minlashni yaxshilash.

-kelajakda meva uzum yetishtirishni rivojlantirib, sanoatni xom ashyo bilan, aholini meva, uzum bilan ta'minlash maqsadida sanoat bob xo'raki navlarni yetishtirishga alohida ye'tibor qaratish;

-tuman hududlarida o'rik, shaftoli, olma, gilos, nok kabi mevalarni ham yangi navlarini keltirib ko'paytirishga katta ye'tibor qaratish;

Shuningdek quritish uchun va sanoat ahamiyatiga yega mevalarni ham rivojlantirishga alohida ye'tibor berish;

-yalpi mahsulot yetishtirishni asosan hosildorlikni oshirish hisobiga ko'paytirish; buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab yetiladi:

-bog', uzumzor kasalliklariga, zararkunandalariga qarshi kurashda ilg'or metodlardan foydalanish;

-meva, uzum yetishtirishda qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari singari tarmoqlararo ixtisoslashish va konsentratsiyalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish.

Sabzavot yetishtirishga alohida e'tibor qaratish, ertangi va kechki navlarni yetishtirishga keng o'rin berish va sabzavot mahsulotlardan har xil turdagi, tamat, kanpot, sharbatlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hamda qayta ishlash korxonalarini bevosita shu hududlarda qurishni kupaytrish.

Aholini yil bo'yi sabzavot va mevalar bilan ta'minlash uchun xo'jaliklarda issiqxonalarni vujudga keltirish.

Tumanda sut va go'shtni qayta ishlab sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini tashkil qilish va kichik tadbirkorlik yo'nalishlariga e'tibor berish.

Baliqchilik, asalarichilik, darandachilik kabi tarmoqlarni rivojlantirishga ya'nada kuproq e'tibor qaratish lozimdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati

1. Каримов. И. А “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, ҳафсизликга таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” -Т. Ўзбекистон 1997
2. Каримов. И. А “Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда“ -Тошкент Ўзбекистон 1999
3. Акрамов. З .М “ География сельского хозяйство Самаркандской и Бухарской области”- Т .1961
4. Акрамов .З . М “Ўзбекистон Республикаси иқтисодий ва ижтимоий географияси” -Т. 1982
5. Асамов. Т. Набиҳонов. М Сафаров.И. “Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси“.- Т. “Ўқитувчи”. 1991
6. Аҳмедов.Э. “Мустақил Ўзбекистон “- Тошкент 1993
7. Олимжонов .О.О. Баҳрамов. А. У. Султонов. У.С. ва бошқлар “Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларда” -Т .1996
8. Рўзиев . А. Абиркулов. К. “ Ўзбекистон иқтисодий географияси” - Тошкент “Шарқ “ 2002
9. Солиев. А.С Қаршибоев. А “ Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари”.- Тошкент 1999
- 10.Солиев.А.С. ва бошқ. “ Минтақавий иқтисодиёт”. -Т.2003
- 11.Тухлиев. Н. “ Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти” Т. 1999.
- 12.Ҳалилова. Ҳ.Т. Самарқанд шаҳри атрофи қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш муоммолари”. Т. 1994
- 13.Jomboy tumani statistika boshqarmasi 2008-2012-yillar malumotnomasi.
- 14.Jomboy tuman posporti. 2009-2012 уу
- 15.Jomboy tumani fermer ho‘jaliklar uyushmasi hisoboti. 2008-2012-yillar.
- 16.www.zionet.uz
- 17.www.lex.uz